

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТЫ  AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Xalqaro aloqalar

XAVFSIZLIK YO'LIDAGI IZCHIL HAMKORLIK VA MUSHTARAK MAS'ULIYAT



Pekin shahrida «Markaziy Osiyo – Xitoy» formatida Ichki ishlar va Jamoat xavfsizligi vazirlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda Markaziy Osiyo davlatlarining ichki ishlar vazirlari hamda Xitoy Jamoat xavfsizligi vazirligi rahbariyati ishtirok etdi. O'zbekiston delegatsiyasiga Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov boshchilik qildi.

Mazkur uchrashuv so'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan Markaziy Osiyo – Xitoy munosabatlarining mantiqiy davomidir. Davlat rahbarlari o'rtasida muntazam o'tkazilayotgan uchrashuvlar va ochiq siyosiy muloqot o'zaro ishonchni mustahkamlab, strategik sheriklikni amaliy mazmun bilan boyitmoqda. Bu jarayon iqtisodiyot, savdo, investitsiya, transport va gumanitar sohalar bilan bir qatorda, huquq-tartibot va xavfsizlik yo'nalishini ham qamrab olmoqda.

Bugun xavfsizlikka tahdidlar transchegaraviy tus

olganligi sababli terrorizm va ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi, odam savdosi va kiberjinoyatchilikka qarshi samarali kurashish davlatlar o'rtasida tezkor axborot almashinuvi va muvofiqlashgan harakatlarni talab etadi. Ayniqsa, kibernomada sodir etilayotgan jinoyatlar yangi yondashuvlarni taqozo qilmoqda. Jinoyat tashkilotchisi, ijrochisi va jabrlanuvchisi turli mamlakatlarda bo'lishi mumkin bo'lgan sharoitda

(Davomi 2-betda.)

AHILLIK HUKM SURAYOTGAN MASKAN

Mamlakatimizda mahalla tizimiga qaratilayotgan e'tibor har qachongidan ham yuksak darajaga ko'tarildi. Endi mahalla nafaqat yashash hududi, balki inson qadri ulug'lanadigan, odamlar daromad topib, farovon yashaydigan, yoshlar kasb-hunar o'rganadigan va eng muhimi, ahillik muhiti hukm suradigan maskanga aylanmoqda. Quva tumanidagi «Yangi Quva» ana shunday namunali mahallalardan biridir.



9



**STRATEGIK SHERIKLIKKA
QADAM QO'YILDI**

O'zbekiston va Serbiya o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi: 8-sentabr kuni Belgradda Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Aleksandr Vuchich strategik sheriklik to'g'risida qo'shma deklaratsiyani imzoladi. Tomonlar savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, transport, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, avtomobilsozlik, «yashil» energetika, raqamlashtirish va sun'iy intellekt sohaslarida hamkorlikni kuchaytirishga kelishdilar. 2026–2028-yillarga mo'ljallangan qo'shma harakatlar rejasi qabul qilinib, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish belgilandi. Tashrif doirasida Belgraddagi ko'chalardan biriga «Toshkent» nomi berilishi ham ikki davlat o'rtasidagi yaqin munosabatlarning ramziy ifodasi bo'ldi. Tashrif yakunida Shavkat Mirziyoyev Serbiyaning eng yuksak



davlat mukofotlaridan biri – Katta zanjirli Serbiya Respublikasi ordeni bilan taqdirlandi.

**BOJXONADA
RASMIYLASHTIRISH
20 DAQIQAGACHA QISQARDI**

Prezident Shavkat Mirziyoyev 7-sentabr kuni Butunjahon bojxona tashkiloti Bosh kotibi Yan Sondersni qabul qildi. Uchrashuvda bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish, sohaning salohiyatini oshirish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish masalalari muhokama qilindi. Islohotlar natijasida eksport yuklarining 94 foizi, import yuklarining 87 foizi soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirilmoqda, deklaratsiya-

larni rasmiylashtirish vaqti esa 20 daqiqagacha qisqargan. Tomonlar bojxona jarayonlarini yanada raqamlashtirish, xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish va kadrlar malakasini oshirish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirishga kelishib, bu yo'nalishda aniq choralarni belgilaydigan «yo'l xaritasi» ishlab chiqishga kelishib oldi.

**SUYULTIRILGAN GAZ
TA'MINOTI ISLOH QILINADI**

O'zbekistonda suyultirilgan gaz ta'minoti tizimini takomillashtirish bo'yicha yangi takliflar ko'rib chiqildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 7-sentabr kuni sohada islohotlar taqdimoti bilan tanishdi. Unda aholi va iste'molchilarni gaz bilan barqaror ta'minlash, ta'minot jarayonlarini raqamlashtirish, hisob-kitoblarni shaffoflashtirish hamda tizim samaradorligini oshirishga qaratilgan choralar muhokama qilindi.

TAYINLANDILAR

Polkovnik
Shermuxamedov Abdumajid
Mavlyanovich – Andijon viloyati
IIB boshlig'i lavozimiga.



Podpolkovnik
Kaimxodjayev Oybek
Abdukarimovich – Xorazm
viloyati IIB boshlig'i lavozimiga.

Xalqaro aloqalar**XAVFSIZLIK YO'LIDAGI IZCHIL HAMKORLIK
VA MUSHTARAK MAS'ULIYAT**

(Davomi.
Boshlanishi 1-betda.)

huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Pekindagi muloqotda ana shu masalalar yuzasidan tajriba almashish, amaliy hamkorlikni

sa, transmilliy jinoyatchilik, kiberjinoyatlar va boshqa zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashishda turli davlatlar mutaxassislarining tajriba almashishi alohida ahamiyatga ega.

O'quv jarayonlarini yagona hamkorlik maydonida tashkil etish turli mamlakat-



* * *

Tadbir doirasida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov hamda Xitoy Xalq Respublikasi Jamoat xavfsizligi vaziri Van Syaouxun boshchiligidagi delegatsiyalar o'rtasida ikki tomonlama uchrashuvlar bo'lib o'tdi.

Tomonlar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Jamoat xavfsizligi vazirligi o'rtasida 2026–2027-yillarga mo'ljallangan «yo'l xaritasi» ijrosini izchil davom ettirish hamda «Markaziy Osiyo – Xitoy» formatidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga kelishib olishdi.


Uchrashuv davomida Xitoy Hukumati va Jamoat xavfsizligi vazirligining O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qo'shayotgan hissasi yuqori baholandi. Ayniqsa, IIV Akademiyasi Innovatsion ta'lim markazi soha uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlashda

muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

Uchrashuvda asosiy e'tibor terrorizm va ekstremizm, giyohvandlik moddalari ning noqonuniy aylanmasi, uyushgan hamda boshqa turdagi transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashish sohasida hamkorlikni yanada kuchaytirishga qaratildi. Shuningdek, kiberxavfsizlik va raqamli kriminalistika yo'nalishida ilg'or tajribalar almashish hamda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar o'rtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Shu bilan birga, biometrik identifikatsiya, zamonaviy kriminalistika texnologiyalari, politsiya aviatsiyasi va dronlardan foydalanish sohaslarida hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan fikr almashildi.

Do'stona va konstruktiv ruhda o'tgan uchrashuvda yuqorida qayd etilgan ko'plab yo'nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab olindi.

O'z muxbirimiz.



kengaytirish va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlari muhokama qilindi.

Tadbir doirasida delegatsiyalar Markaziy Osiyo va Xitoy davlatlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun tashkil etilgan o'quv bazasining ochilish marosimida ishtirok etishdi. Mazkur o'quv muassasasi xodimlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ilg'or tajribani o'rganish va amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish uchun muhim maydon bo'lib xizmat qiladi. Ayniq-

lar mutaxassislari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri tajriba almashish, amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish va sohadagi ilg'or yondashuvlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Eng muhimi, bunday hamkorlik xavfsizlikni ta'minlashda umumiy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchrashuv doirasida Xitoy Jamoat xavfsizligi vaziri Van Syaouxun O'zbekiston Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatovga ikki tomonlama munosabatlar va idoralararo hamkorlik

izchil rivojlanib borayotgani ramzi sifatida «Buyuk devor» esdalik nishonini tantanali ravishda topshirdi.

Tadbir yakunida Xitoyning jamoat xavfsizligini ta'minlash, raqamli texnologiyalarni huquqni muhofaza qilish tizimiga joriy etish borasidagi tajribasi Markaziy Osiyo davlatlari uchun muhim ahamiyatga egaligi, o'zaro tajriba almashinuvi esa jinoyatchilikning yangi shakllariga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi alohida qayd etildi.

Videoselektor yig'ilishi

MAS'ULIYAT VA ISHONCH – ASOSIY MEZON

Inson qadri, yurt osoyishtaligi va jamiyat barqarorligini ta'minlash har qanday huquqiy davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Jamiyatda tinchlik-osoyishtalikni saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi faqatgina ma'muriy-huquqiy choralar majmui bo'lib qolmasdan, davlatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi, aholining hayotdan rozilik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ichki ishlar vazirligida joriy yilning 8 oyi davomida mamlatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish, kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash, aholi bilan manzilli ishlash hamda profilaktika choralarining samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi ayni shu omillarni tizimli tahlil qilish va kelgusidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab olishga bag'ishlandi.

ilgari surilgan vazifalar mazmuni shuni ko'rsatadiki, zamon bilan hamnafas odimlay oladigan soha xodimigina, jamoat xavfsizligini ishonchli ta'minlashi mumkin.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, ichki ishlar xodimi yuksak kasbiy bilim va mustahkam amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi, zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalardan samarali foydalana olishi, murakkab operativ

munosabatini ijtimoiy mas'uliyat nuqtayi nazaridan o'zgartirish demakdir.

Yig'ilishda faoliyatni natijadorlik va shaxsiy mas'uliyat tamoyillari asosida tashkil etish qat'iy talab qilindi. Uzoq yillar davomida kuzatilgan asosiy kamchiliklardan biri – huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilganidan so'ng ularning oqibati bilan kurashish, ya'ni faqatgina tergov va surishtiruv ishlari bilan cheklanish edi. Yangi tizim esa e'tiborni butunlay boshqa o'zanga burishni talab qiladi: jinoyatning oqibati bilan kurashish emas, uni keltirib chiqarayotgan sabab va omillarni barvaqt aniqlash hamda bartaraf etish.

Yig'ilish davomida joriy yilning 8 oyida respublika bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va erishilgan muayyan natijalar bilan bir qatorda, ayrim hududlarda yo'l qo'yilayotgan jiddiy kamchiliklar va sustkashliklar tanqidiy muhokama qilindi. Ba'zi hududiy organlar tomonidan jinoyatchilik-

tushib qolayotgani qattiq tanqid qilindi.

Ichki ishlar organi rahbari va xodimi o'z hududidagi kriminogen vaziyatni quruq va umumiy statistik ko'rsatkichlar orqali baholash davri o'tdi. Har bir hudud o'ziga xos xususiyatlarga, ijtimoiy va kriminogen muhitga ega. Shu sababli profilaktika ishlarini hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish zarur. Bunda xavf guruhi-ga kiruvchi shaxslar bilan manzilli va muntazam ishlash, muammoli va nizoli oilalardagi ijtimoiy-psixologik muhitni sog'lomlashtirish hamda alohida nazorat va e'tiborga muhtoj holatlarni o'z vaqtida aniqlab, tegishli yordam ko'rsatish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Eng asosiy mezon – bu qarorlar ijrosini qog'ozdagi hisobotlar yoki nomiga o'tkaziladigan tadbirlar emas, balki joylarda haqiqiy amaliy natijaga erishishdir. Yangi yondashuvlarning samarasi, avvalo, aholi bilan ishlash sifatida, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda, jamoat xavfsizligini ta'minlashda va eng muhimi – fuqarolarning ichki ishlar organlariga bo'lgan ishonchi ortishida o'z ifodasini topishi kerak.

Yig'ilish yakuni-da muhokama qilingan har bir yo'nalish va muammo bo'yicha mas'ul rahbarlarga aniq topshiriqlar berildi. Hududiy ichki ishlar organlari rahbarlaridan kriminogen vaziyatni chuqur tahlil qilish, profilaktik yondashuvni kuchaytirish, ijtimoiy muammolarni o'z vaqtida aniqlab, ularning yakuniy yechimigacha borish, yoshlar bilan ishlash samaradorligini tubdan oshirish hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmlariga olishlari talab qilindi.

Videoselektor yig'ilishi shunchaki navbatdagi hisobot yig'ilishi emas, balki tizimni tubdan transformatsiya qilish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda yangi fikrlash va amaliy harakatlar davri boshlanganining ifodasi bo'ldi. Zero, belgilangan vazifalar, yuklatilgan shaxsiy mas'uliyat va yo'naltirilgan aniq maqsadlar xalq manfaati, fuqarolar xavfsizligi va jamiyat barqarorligiga xizmat qiladi.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.



Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov rahbarligida o'tkazilgan ushbu yig'ilishda vazir o'rinbosarlari, sohaviy xizmatlar va hududiy ichki ishlar organlari rahbarlari ishtirok etdi. Tadbirida sohadagi tub islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida mavjud kamchiliklar oshkora va tanqidiy tahlil qilindi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan ikkita muhim hujjat: 2026-yil 26-avgustdagi «Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlash tizimini transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda 4-sentabrdagi «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatiga yangicha ishlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash masalalari ko'rib chiqildi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, globallashtirish jarayonlari va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ichki ishlar organlari xodimlaridan yangi fikrlash, yuksak kasbiy bilim va zamonaviy texnologik ko'nikmalarni talab etmoqda. Prezidentning mazkur qarorlarida

va ijtimoiy vaziyatlarni chuqur tahlil qilish hamda mustaqil va xolis qaror qabul qilish salohiyatiga ega bo'lishi zarur. Bu esa kadrlar tayyorlash va ularning



malakasini oshirish tizimini tubdan transformatsiya qilishni taqozo qiladi. Ta'lim muassasalarida berilayotgan nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, xodimlarning xizmat davomida kasbiy salohiyatini muntazam va tizimli oshirib borishi asosiy talab qilib qo'yildi. Kadrlar transformatsiyasi – xodimlarning dunyoqarashini, xizmatga va fuqarolarga bo'lgan

ka ta'sir ko'rsatayotgan omillarni chuqur tahlil qilmaslik, huquqbuzarliklarning oldini olishda yuzaki yondashish va profilaktik ishlarni manzilli tashkil etmaslik holatlari kuzatilayotgani alohida ko'rsatib o'tildi. Ayniqsa, sodir etilgan jinoyatlarni keltirib chiqargan sabab va shart-sharoitlarni chuqur o'rganmaslik va ularni bartaraf etish masalalarining ikkinchi darajaga

Xorazmda xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida jamoat xavfsizligi va ichki ishlar organlari oldidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.



Davlat rahbari topshiriqlarining aniq natijasi joylarda ko'rinadi: Xorazmda ichki ishlar organlari faoliyati va xavfsizlik tizimi samaradorligi o'rganildi.



Xalqaro e'tibor markazidagi Samarqand — yuksak ishonch, ulkan mas'uliyat va mustahkam xavfsizlik



Senatorlar davlat chegarasi xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan Qonunni ma'qulladi



Mustaqillik inshootlari

BINOLARDA NAMOYON QUDRAT

Davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan Jizzax viloyati ichki ishlar organlari tizimida bir qator yangi obyektlar foydalanishga topshirildi. Ularning har biri muayyan yo'nalishdagi faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilsa-da, yaxlit holda sohada shakllanayotgan yangi ish uslubi va zamonaviy yondashuvlarni namoyon etadi.



Sharof Rashidov tumani «Mustaqillikning 35 yilligi» mahalla fuqarolar yig'inida yangi huquq tartibot maskani ochilishi profilaktika yo'nalishidagi muhim qadamlardan biridir. Ma'muriy binoning birinchi qavatida «mahalla yettiligi» vakillari uchun xonalar va navbatchilik qismi joylashgan. Ikkinchi qavat xodimlar uchun xonalar, ma'rifat zali hamda «Situatsion markaz»dan iborat. 1-sonli IIB 13 ta mahallaga xizmat

zamonaviy eng so'nggi texnologiyalar asosida jihozlangan bo'lib, hududdagi tezkor vaziyatni real vaqt rejimida kuzatish, sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga tezkor baho berish va zarur holatlarda o'z vaqtida chora ko'rish imkonini kengaytiradi. Markaz «Qalqon» platformasiga integratsiya qilingan bo'lib, unga 5200 dan ortiq videokuzatuv kamerasi ulangan. Shuningdek, platformaga 40 turdan ortiq axborot bazalari integratsiya qilingan bo'lib, yuzni tanish,

satuvlar va boshqa mediamahsulotlarni tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

– Bugun jamoatchilik ichki ishlar organlarining faoliyati haqida nafaqat rasmiy xabarlar, balki tezkor videolavhalar, intervyular, tahliliy materiallar va ijtimoiy roliklar orqali ham axborot olishni istaydi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy studiya Axborot xizmatining texnik imkoniyatlarini oshirish bilan birga, tizim va jamoatchilik o'rtasidagi ochiq muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi, – deydi viloyat IIB Axborot xizmati rahbari, mayor Abulqosim Ahmedov.

Mazkur yangi obyektlarni shunchaki yangi ma'muriy inshootlar sifatida baholab bo'lmaydi. Ularning har birida ichki ishlar tizimidagi islohotlarning muayyan jihati aks etgan. Sharof Rashidov tumanidagi yangi bino – mahallabay ishlash va hamkorlikka, Tezkor boshqaruv markazi – raqamli texnologiyalar va tezkor boshqaruvga, Axborot xizmati uchun barpo etilgan zamonaviy bino va studiya ochiqlik, axborot tezkorligi va jamoatchilik bilan muloqotga qaratilgan yangi yondashuvlarni o'zida mujassam etgan. Zero, har qaysi yangi binoning haqiqiy qiymati uning jihozlari yoki nechog'li zamonaviyligida emas, balki yaratilgan imkoniyatlar orqali xalqning tinchligi, el osoyishtaligi va



ko'rsatishini inobatga olsak, bu yerda mahalla va ichki ishlar organlari vakillarining bir joyda hamohang faoliyat yuritishi profilaktik ishlarni manzilli tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

– Mahallada 5660 nafar aholi, 1716 ta oila istiqomat qiladi. Ularning har biri bilan ishlash, oiladagi muhit, ijtimoiy holat va mavjud muammolarni o'rganish katta mas'uliyat talab etadi. Yangi binoda «mahalla yettiligi» bilan birlikda ishlash uchun yaratilgan sharoitlar bu vazifalarni yanada samarali bajarish imkonini bermogda, – deydi Sh. Rashidov tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Ulug'bek Bekqulov.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR – XAVFSIZLIK QALQONI

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadida viloyat IIBda Tezkor boshqaruv markazi tashkil etildi. Markaz

transport vositalari harakatini kuzatish, qidiruvdagi shaxslarni aniqlash kabi imkoniyatlar mavjud.

AXBOROT – OCHIQLIK VA ISHONCH KO'PRIGI

Jizzax viloyati IIB Axborot xizmati huzurida zamonaviy telestudiya tashkil etilgani tizim



faoliyatini jamoatchilikka tezkor, xolis va sifatli yetkazish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Studiyada intervyular, brifinglar, videomurojaatlar, maxsus ko'r-

xavfsizligining yanada ishonchli ta'minlanishida namoyondir.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Ислохотлар бардавом

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА МУҲИМ БОСҚИЧ

Юртимизнинг ҳар бир гўшасида Мустақиллигимизнинг 35 йиллиги шодиёналари ўзгача шукуҳ билан нишонланди. «Ягона Ватан, ягона халқ бўлиб, янги ҳаёт ва келажак яратамиз!» деган эзгу ғоя асосида нишонланган байрам ўз мазмун-моҳияти билан мамлакатимизда истиқомат қилаётган турли миллат вакиллари-ни ягона мақсад йўлида бирлаштирди.

Ҳар бир юртдошимиз ўзининг Янги Ўзбекистонда амалга ошири-лаётган хайрли ишлар, халқ фаро-вонлиги йўлидаги ислохотларга дахлдор эканини англаб, ҳис этиб, қалбида шукроналик туйғулари билан яшамоқда. «Инсон қадрини учун!» деган ҳаётбахш тамойил асо-сидаги эзгу амаллар эса, фуқаролари-мизнинг ҳаётдан рози бўлиб яшаши ва эртанги кунга ишончи ортишига хизмат қилмоқда.

Айниқса, сўнгги ўн йил ичида мамлакатимизда ўзининг кўлами, ютуқ ва натижалари билан асрга та-тигулик янгилашлар юз берди. Энг аввало, ҳар бир инсон эркин ва фаровон ҳаёт кечирадиган хавфсиз жа-мият барпо этиш борасида тизимли чора-тадбирлар амалга оширилди. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органла-рининг фаолияти инсон ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини таъмин-лашга қаратилди.

Президентимиз Ўзбекистон Республикаси давлат мустақилли-гининг ўттиз беш йиллигига бағиш-ланган тантанали маросимдаги нутқида таъкидлаганидек, «пахта қуллиги», «мажбурий меҳнат ва болалар меҳнати», «конвертация чеклови», «прописка» каби одамлар-ни йиллар давомида қийнаб келган муаммоларга барҳам берилди. Қўш-ниларимиз билан дўстлик ва ҳамкор-

лик мустақамланди.

Шунингдек, Давлатимиз раҳбари Янги даврда 650 мингдан зиёд оила-лар замонавий уй-жойга эга бўлгани, камбағаллик даражасини 2017 йил-даги 35 фоиздан 4 фоизга туширишга эришилганини мамнуният билан таъкидладир.

Шу давр мобайнида мамлакатимиз аҳолиси 8 миллионга кўпайган бир шароитда боғча қамрови 78 фоизга етгани, мактабларда 1,5 миллион кўшимча ўқувчи ўрни яратилгани, Президент, ижод ва ихтисослашган мактаблар ташкил этилиб, ёшлар-нинг етакчи хорижий таълим мас-канларидан кам бўлмаган даражада чуқур билим эгаллаши учун зарур имкониятлар яратилгани алоҳида эътироф этилди.

Юртбошимиз шу боисдан: «Бугун биз тарихнинг янада масъулиятли ва ҳал қилувчи палласида турибмиз. Мамлакатимиз тараққиётнинг мут-лақо янги даврига қадам қўймоқда. Келгуси ўн йиллик – биз учун миллий юксалиш даври бўлади», – дедилар. Ушбу улуғвор мақсадни рўёбга чиқариш учун келгуси йилларда юртимизда инсон қадрини янада юксалтирадиган 7 та миллий дастур амалга оширилишини қайд этдилар.

Президентимиз таълим сифати-ни ошириш тараққиётнинг яккаю ягона тўғри йўли эканлигини, нажот

таълимда, тарбияда, билимда экан-лигини ҳамиша таъкидлаб келадилар. Шунинг учун **биринчи миллий дастур билим ва малакани келгуси тараққиётимизнинг асосий капи-талига айлантиришдан иборат бўлиши ҳам бежиз эмас.**

Унга мувофиқ, болаларнинг 6 ёшли тайёрлов гуруҳларига қамро-ви қисқа муддатда 100 фоизга олиб чиқилади. Хусусий боғча ташкил қилиш бўйича мавжуд имтиёзлар келгусида ҳам сақлаб қолинади.

Ўқувчи ёшлар илғор хорижий мам-лаклатлардаги тенгдошлари билан бемалол рақобат қила олишлари учун барча мактаблар халқаро баҳо-лаш дастурлари билан тўлиқ қамраб олинади. Шунингдек, мамлакатимиз-даги техникумларда халқаро таълим стандартлари жорий этилади. Энг муҳими, уларда ёшларимиз юқори даромадли, замонавий ва эҳтиёж катта бўлган касбларга ўқитилади.

Бу жараён олий таълим тизимини ҳам четлаб ўтмайди. Мазкур Миллий дастурга кўра, келгуси йилларда юртимиздаги камида 10 та универ-ситетни ТОП мингталикка киритиш мўлжалланган.

Бебаҳо неъматлардан бири тинч-лик-осойишталик бўлса, иккинчиси сиҳат-саломатликдир. **Иккинчи миллий дастур ҳам халқимизнинг соғлом бўлиши ва узоқ умр кўри-шини таъминлашга қаратилган.**

Ушбу мақсадга йўналтирилади-ган давлат харажатларини келгуси беш йилда ялпи ички маҳсулотга нисбатан 5 фоизга етказиш режа-лаштириляпти. Келгусида тиббиётда профилактик чора-тадбирлар кучай-



Кутбидин БУРХАНОВ,
Олий Мажлис Сенати
Мудофаа ва хавфсизлик
масалалари қўмитаси раиси

тирилади. Давлат тиббий суғуртаси юртимиздаги ҳар бир хонадонга ки-риб бориши кўзда тутилмоқда.

Бугун жаҳон иқтисодиётида етак-чилик қилаётган мамлакатлар бунга ишлаб чиқаришга илғор технология-ларни жалб этиш орқали эришмоқда. Шу боисдан **учинчи миллий дастур мамлакатимиз иқтисодиётини юқори технология ва меҳнат унум-дорлиги моделига ўтказишга йўналтирилади.**

Бундай юксак мақсадни амалга ошириш учун ке-йинги ўн йил мобайнида 450 миллиард АҚШ долла-ри миқдорида хорижий ин-вестиция жалб қилиниши лозим бўлади. Асосий эътибор иқтисодиётда юқо-ри ўсиш суръатини сақла-ган ҳолда, 2030 йилгача ялпи ички маҳсулот ҳажми-ни 300 миллиард долларга етказишга қаратилади. Бунинг самараси ўлароқ, саноатда 2 миллионга юқо-ри даромадли янги иш ўрни яратилади.

Келажаги порлоқ бўлишини иста-ган халқ, жамият, давлат авваламбор ёш авлод ҳақида қайғуради. Бугунги тезкор замонда, ахборот технология-лари асрида эса ёшларимизнинг са-лоҳиятини тўлиқ рўёбга чиқаришни рақамли технологиялар ва сунъий интеллектни ривожлантиришсиз тасаввур этиб бўлмайди. Хужжатда айнан шу масалаларга устувор аҳа-мият берилади.

Миллий дастур хусусий бизнесни ривожлантиришга шарт-шароит яратишни ҳам кўзда тутди. Жум-ладан, кичик бизнес ўрта бизнесга, ўрта корхоналар эса йирик компания ва корпорацияларга айланиши учун яхлит экотизим йўлга қўйилади. Натижада келгуси ўн йилда жон бо-шига ялпи ички маҳсулот ҳажмини 10 минг долларга етказиш мўлжал-ланяпти.

(Давоми 6-бетда.)



www.youtube.com/@Postda_IV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Ислохотлар бардавом

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН
ТАРАҚҚИЁТИДА
МУҲИМ БОСҚИЧ(Охири. Бошланиши
5-бетда.)

Ҳеч кимга сир эмаски, дунё бўйлаб глобал иқлим ўзгаришлари юз беряпти. Марказий Осиё ҳудудида чўлланиш жараёнлари кечаётгани ҳам ҳақиқат. Сайёрамизнинг аксар аҳолиси тоза ичимлик суви етишмаслигидан қийналмоқда. Йилдан-йилга сув танқислиги ва экология муаммолари кучаймоқда.

Ана шу долзарб ва ташвишли омилларни ҳисобга олиб, **тўртинчи миллий дастур сув ва табиатга муносабатни тубдан ўзгартиришга қаратилади.** Унга асосан, келгуси беш йилда экин майдонларида сув тежайдиган технологиялар қамрови 100 фоизга етказилади. «Яшил макон» умуммиллий ҳаракатини янги сифат босқичига олиб чиқиш кўзда тутиляпти.

Давлатимиз раҳбари 2020 йил июнь ойида одил судловни таъминлаш ва коррупцияга қарши курашиш борасидаги вазифалар муҳокамасига бағишланган видеоселектор йиғилишида: «Суд биносига келган ҳар бир инсон Ўзбекистонда адолат борлигига ишониб чиқиб кетиши керак. Бу Президент талаби!» – дея таъкидлаган эдилар. **Бешинчи миллий дастур суд мустақиллигини кучайтириш ва қонун устуворлигини таъминлашни умуммиллий қадриятга айлантириш вазифасини ўз ичига олади.**

Зеро, адолат қарор топса, мамлакат иқтисодий жиҳатдан тараққий этади, давлатга ишонч ортади. Аммо адолат тантанаси фақат судгагина боғлиқ эмас. Бунинг учун жамият аъзоларининг ҳуқуқий онги ва маданияти юксак бўлиши, қонун устуворлигини таъминлаш умумий қадриятга айланиши керак. Шу боисдан дастурга кўра, ҳуқуқий тарбия мактабдан бошланиб, аниқ тизим асосида йўлга қўйилади.

Шунингдек, кибержиноятчилик, гиёҳвандлик ва одам

савдосининг олдини олиш бўйича чораларни янада кучайтириш, уюшган жиноятчилик, аёллар ва болалар ҳуқуқини камситишга қарши курашни янги босқичга кўтаришни эса даврнинг ўзи тақозо этмоқда.

Сўнгги йилларда аҳоли фаровонлигини таъминлаш ва ҳудудларда кундалик масалаларни ҳал этишда маҳалла жамоатчилиги ҳамда давлат органлари ўртасидаги «таянч кўприк»ка айланиб улгурди, десак янглишмаган бўламиз. Шу сабабли **олтинчи миллий дастур маҳалла-жамият тараққиётининг асосий буюртмачисига айлантиришга қаратилган.**

Унинг амалга оширилиши натижасида бундан буён туман бюджети, инвестиция дастури ҳамда инфратузилма лойиҳалари маҳалла буюртмаси асосида ишлаб чиқилади. Бунда аҳолининг талаб ва эҳтиёжи, маҳалланинг фаровонлиги талабларидан келиб чиқилади.

Азалдан юртимизда турли миллатлар истиқомат қилишган. Бугунги кунда жонажон юртимизда 130 дан ортиқ миллат ва элат вакиллари, 16 та диний конфессия аъзолари ўзаро аҳил-иноқ яшашмоқда. Бебаҳо бойлигимиз бўлган ана шу қадриятларни кўз қорачиғидек асраш, янада мустаҳкамлаш мақсадида **еттинчи миллий дастур Ўзбекистоннинг тинчлик ва дўстлик диёри, бағрикенг ўлка сифатидаги нуфузини ҳар томонлама юксалтиришни назарда тутди.**

Юртимизда сўнгги ўн йил ичида ўтказилаётган ислохотлар халқнинг қалбига қулоқ тутишга, аҳолининг дардига дармон бўлишга хизмат қилмоқда. Ислохотларнинг мантиқий давоми бўлган юқорида санаб ўтилган еттита Миллий дастур ҳам ана шундай эзгу мақсад, ҳаётбахш гоё билан йўғрилган. Уларнинг амалга оширилиши юртимиз ривожига, халқимиз турмушининг янада фаровонлашишида муҳим омил бўлиши шубҳасиз.

Маънавий-маърифий тадбир

ИНСОН ҚАДРИ БАРЧА
ИСЛОХОТЛАРНИНГ ЎЗАГИ

Ички ишлар вазирлигида ўқув семинари тарзида ташкил этилган навбатдаги «Маънавият ва маърифат дарси» Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз беш йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқининг мазмун-моҳиятига бағишланди.



Унда ИИБ марказий аппарати шахсий таркиби, Қорақалпоғистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги, Тошкент шаҳар ва Тошкент вилояти ички ишлар бош бошқармалари, вилоятлар ички ишлар бошқармалари ходимлари видеоселектор орқали қатнашди.

Тадбир аввалида Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотларга бағишланган видеоролик намойиш этилди. Унда мамлакатимиз тараққиётининг бугунги босқичи ва халқ фаровонлигини юксалтиришга қаратилган ўзгаришлар ўз ифодасини топди. Шунингдек, инсон қадрини улуғлаш, таълим ва соғлиқни сақлаш соҳаларини ривожлантириш, ёш авлод учун муносиб имкониятлар яратиш борасида амалга оширилган ишлар атрофлича таҳлил қилинди.

Фалсафа фанлари доктори, профессор Жалолиддин Юсубов «Уч минг йиллик илдиз ва Учинчи Ренессанс: тарихий

дастур яхлит тизим сифатида ва нутқнинг бош ғоялари» мавзусидаги маърузаларида халқимизнинг бой тарихи ва маънавий мероси Янги Ўзбекистон тараққиёти учун мустаҳкам пойдевор бўлиб хизмат қилаётганини, инсон манфаатларини таъминлаш, билимли ва рақобатбардош авлодни тарбиялаш, мамлакатимиз тараққиётининг устувор йўналишлари ҳамда ислохотларни амалга оширишда жамиятнинг фаол иштироки хусусида фикр юритишди.

Маънавий-маърифий тадбирда давлатимиз раҳбари-



ворислик, миллий ўзлик ва маънавий мерос», профессор Зебо Қосимова «Инсон қадр – 35 йиллик ислохотларнинг ўлчови: эркинлик, билим, соғлиқ ва ёшлар» ҳамда Республика Маънавият ва маърифат маркази бўлим бошлиғи, социология фанлари доктори, профессор Сухроб Хидиров «Миллий юксалиш ўн йиллиги: етти миллий

нинг байрам нутқида илгари сурилган 7 та миллий дастур ғояларини ички ишлар органлари шахсий таркибига чуқур етказиш, ходимларда Ватан тақдирига дахлдорлик, миллий ғурур ва юксак маънавий масъулият туйғусини янада мустаҳкамлаш муҳим экани қайд этилди.

Азизжон ФАЙЗИЕВ,
подполковник.



TINCHLIK – BEBAHO NE'MAT

Atrofga boqing. Tong otyapti, quyosh bor, odamlar o'z ishlari bilan andamon – ko'chalarda hayot daryosi toshadi, bog'cha, maktab, ish, do'kon va hokazo... sari boshlangan tiriklikning osuda onlari. Borliq osoyishta, oyog'imiz ostidagi yer omonatmas, boshimiz tik, zamin portlamaydi, ko'k titramaydi...

Qushlar sayrayapti, gullar ochilgan. Shundan o'zga saodat bormikan?

Odam bolasi uchun tinchlik va xotirjamlikdan boshqa ulug' ne'mat yo'q. Bir burda non, bir qultum suv ham tinchlik tufayli tatiydi. Ishoning, boshingizda o'q uchib, atrof-javonib zirillab tursa, tomog'ingizdan yemak o'tmaydi, karaxlik va qo'rquv vujudingizni muzlatib, ichingizda tushuniksiz bir iztirob o'rlab, a'zoyi tanangizni lohas etadi.

Ba'zida jang oldidan xuddi shunday tushuniksiz holga tushardim, botinimni allaqanday dahshat timdalay boshlardim. Yo'q, bu qo'rquv emas, urush ichidagi tirik Insonning o'z biologik xususiyatlaridan ma'lum daqiqalarda mosuvo bo'lish holati edi. Bunday holni hech kimga ravo ko'rmayman, hech kimning boshiga tushmasin.

Baxt nima? Baxt – tinchlik! Bo'ldi, uni boshqa narsadan izlamang. Sevgi ham, oila ham, to'y-tomoshalar ham, ijod va kashfiyotlar ham, yaratuvchanlig-u bunyodkorlik, hatto orzu va tiniq xayollar ham tinchlik va osoyishtalik evaziga ko'nglimizni nurlantirib turadi. Hayotimizdagi dilxiraliklar, o'tkinchi dunyodagi g'idi-bidi, adi-badilar, bir-birimizga ozor berishimiz, hasad-u hasrat qutqusi, oh-vohlar, o'zimizning

torfe'lligimiz evaziga paydo bo'lajak mayda-chuydalarning Inson hayotini izdan chiqarib yuboradigan dahshatli bir kuch – urush oldida ikki pullik ahamiyati yo'q, bular shunchaki charxning hazilidir, xolos.

Osmon osoyish ersa, yer gullaydi. Odamzod umri ham bevaqt xazon bo'lmaydi. Men urushda bo'lgan odam sifatida aytyapman, bu gaplarni. U-bu narsa ijod qilayotgan ijodkorman, ba'zida urush mavzusi meni o'ziga ko'proq tortayotganini sezaman. Hozir ham kompyuter qarshisida o'tirgan chog'imda, men ikkinchi odamga, o'sha la'nati urush ichida yurgan o'g'longa aylanib qolganimni, «urush hayoti» umrimning bir bo'lagi ekanligi, meni ikkiga bo'lib tashlaganini his qilyapman.

Ishoning, urush ko'rgan kimsalar hayotda bir emas, ikkita odam bo'lib yashaydi. Men ham bugun o'zimdanda ko'ra ichimdagi «o'g'lon»imga ko'proq ishonaman. U meni imtihon qilib turadi. Ba'zida bu hayotning ikirchikirlari, maydakash odamlarining o'zimga qarshi pastkashliklarini sezaman, botinimda uning qat'iyatli ovozi yangraydi: «E'tibor berma, ehtimol, sen shu «o'yin»larni ko'rish uchun ham tirikdirsan. Bularning bu bachkana qiliqlariga chuvalashib qolma. Qara, atrofga nazar sol, quyosh bor, osmon tinch, ko'chalarda odamlar yayrab yurishibdi, hech kim seni otmayapti, sen hech kimga qurol o'qtalmayapsan, axir jangga ketmayapsan-ku, qo'y-sang-chi, o'shanda o'qqa uchganingda nima bo'lardi? Shukr qilsang-chi...

...O'sha kuni qism og'ir talafot ko'rdi. Mashinamiz batamom ishdan chiqqan ekan, o'sha joyda qoldi. Avtomatim va aloqa qurilmasini yechib olib kelishdi. Mashina ichida, biqinimda turgan qurolimning mili teshik edi. Bilmayman, men ichkaridaligimdami yo tashqariga otilib chiqanimdan



so'ng tekkanmi, qurolimning milini ham snaryad parchasi yorib tashlagandi.

Bu 12-mayning tarixi. O'sha kuni 614-BMPdagi ekipajdan men, leytenant Yermelin va mexanik Rinat, uchalamiz tirik qoldik. Uyga qaytgach, Yermelin odamovi bo'lib qolganini aytdi. Monastirga borib rohib bo'lgan, hech kim bilan gaplashmay qo'yg'an, deyishdi. Ko'p o'tmay vafot etdi. Rinat esa o'zini osib qo'ydi. U Yangiyo'lda yashardi.

...12-may kungi yig'inimizda harbiy qismimizdagi razvedkachilar rotasida jang qilgan sariosiyolik do'stimiz yaqinda Tojikistonning Varzob tumanidan Imom degan quroldoshimizni izlaganini aytdi. Uni o'lib ketgan, deyishibdi. Mayli, qabrini borib ziyorat qilay, deb ko'pchilikdan so'rab-surishtiribdi. Oxiri tog' yonidagi qishloqda bir kishi uning tirikligini, lekin yigirma yildan beri

uyidan chiqmay qo'yganini aytibdi. Tirikligini eshitib xursand bo'ldim, uyini topib bordim, deydi. Chindan, ko'chaga ham chiqmas ekan. Vosvosga yo'liqqan... Qo'rqaman, tashqariga chiqsam, otib ketishadi, sen ham chiqma, yonimda o'tir, dermish.

Shunday bo'lsa ham, uning tirikligi, mehribon ayoli va bolalari oq yuvib, oq tarab parvarishlayotganidan sevindik.

Razvedkachiy aytib bergan keyingi bir voqeani tinglab, dushanbelik rotadoshim Xayriddin Zaburovni yanada yaxshi ko'rdim. Zo'r yigit edi. Mard va tanti edi. U urushdan qaytgach, Panjsher tog'idagi jangda portlagan vertolyot ichida qolib ketgan o'z vzvod komandiri Baxtiyor Akramovning bevasiga uylandi. Uning yetim qolgan go'dagiga otalik qildi. Boqdi, tarbiyaladi. Uyli-joyli qildi. Mushtipar bir ayol, norasida go'dakning xor-u zor bo'lishiga yo'l qo'ymadi. U urush tufayli yetim qolgan bir bolani bosh egib, otasizlik jabri-sitamini tortish azobidan qutqazdi.

Ayting, navqiron yigitning o'zidan yoshi katta, bolali beva ayolga uylanishi qaysi aqlga sig'adi. Sig'ar ekan-ku, Xayriddin bu ishni qildi-ku. Chunki Xayriddin bilardi: leytenant Akramov o'z oilasini, ayniqsa, emgaktagi go'dagini jon-jonidan yaxshi ko'rardi, ularni bu hayotning mazmuni, deb bilardi. Ularga zarracha ozor yetishini istamasdi. Xayriddin bu qarorga kelgunga qadar necha bor o'zini-o'zi imtihon qilmadi, deysiz. Uning ichidagi yana bir boshqa Xayriddin, o'sha urushlarda yurgan Xayriddinning da'vati bilan bu ishga mardonavor qo'l urdi. Komandirning go'dagi ko'zidan yosh oqishiga chiday olmasdi u.

Xullas... ko'ryapsizmi, urush odamlari o'z hayoti davomida urush yukini yuragida ko'tarib yuradi. Va ular bir vaqtning o'zida ikkita hayotda yashaydi.

Tinchlik va osoyishtalik, tiriklikning naqadar ulug' ne'mat ekanligini anglash ham insoniylikning eng muhim belgisi, aslida.

Tinchlik bu, hamma narsa! Tinchlik bo'lmasa, hamma narsa hech narsaga aylanadi.

Tinchlikning qadriga yetish uchun urushni ko'rish shartmas.

Qo'chqor NORQOBIL,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.



Qoraqalpog' tilidagi matn.



Rus tilidagi matn.



Video darslik.

«SHODLIGIMNING CHEKI YO'Q»

Mustaqillikning 35 yilligi arafasida Navoiy viloyatida uzoq yillar yashab, turli sohalarda fidokorona mehnat qilib kelayotgan bir guruh fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tasdiqlovchi ID-kartalar tantanali ravishda topshirildi.



Ular orasida tatar millatiga mansub Anas Valiaxmetov ham bor.

Bugun 61 yoshni qarshi olgan bu inson 2017-yilda taqdir taqozosi bilan Rossiyadan O'zbekistonga ko'chib kelgan. Shundan buyon uning hayoti Navoiy zamini bilan chambarchas bog'landi. Yillar davomida halol ishlab, jamiyatda o'z o'rnini topdi. Qo'lga eng ulug', eng aziz bayram arafasida shu yurtning fuqarosi ekanligini tasdiqlovchi hujjatni topshirishganida:

– Ko'nglimdan kecha-yotgan tuyg'ularni ifodalashga so'z topolmayap-

man. Shodligimning cheki yo'q. Shu topda O'zbekiston zaminida o'tkazgan hayotim ko'z oldimda gavdalanyapti. 2017-yilda Navoiy viloyatiga kelganimda bu yurtida butunlay yashab qolishimni, vaqti kelib shu mamlakatning fuqarosi maqomini olishimni tasavvur ham qilmagan edim. O'zbekiston menga o'z bag'ridan joy berdi. Bundan buyon ham unga munosib bo'lishga harakat qilaman, – dedi hayajonini yashira olmay.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

JAZODAN – TUZALISH SARI

G'uzor tumani IIB JXX Probatsiya guruhi tomonidan nazoratdagi shaxslarning sud hukmi bilan belgilangan jazoni qonun talablari asosida o'tashi, qayta jinoyat sodir etishining oldini olish hamda ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Joriy yil boshidan buyon axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan 70 nafar shaxs tumandagi korxona, tashkilot va muassasalarga ishga joylashtirildi. Bu orqali ularning bandligi ta'minlanib, barqaror daromad manbayiga ega bo'lishiga ko'maklashildi. Xususan, "Qovchin" mahallasida yashovchi J.Jo'rayevning qiziqishi inobatga olinib, u kasb-hunarga o'qishga yo'naltirildi. "Yangikent" mahallasida istiqomat qiluvchi S.Obilov bilan ham individual tartibda suhbatlar o'tkazilib, doimiy ishga joylashtirildi. Mazkur chora-tadbirlar ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi va ijtimoiy muhitga tezroq moslashuviga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, nazoratdagi shaxslarning qayta jinoyat sodir etish xavfini baholash, huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida shaxsiy xususiyatlari chuqur o'rganilib, ularning ijtimoiy-psixologik portretlari shakllantirilmoqda. Hozirga qadar hisobda turgan 344 nafar shaxsning psixologik portreti tuzilib, ular bilan muntazam profilaktik-tarbiyaviy ishlar olib borilyapti.

Bundan tashqari, nazoratdagi shaxslar xavf darajasi bo'yicha toifalarga ajratilgan bo'lib, ularning 306 nafari tuzalish yo'lga o'tganlar, 20 nafari jinoyat sodir etishga moyillar, 12 nafari esa jinoyat sodir etish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar sifatida belgilangan. Har bir toifa vakillari uchun alohida profilaktik tadbirlar belgilangan.

Sud qarorlari ijrosini ta'minlash va mahkumlarning xulq-atvoriga huquqiy baho berish maqsadida yil boshidan buyon 9 marotaba sayyor sud majlisi tashkil etildi. Ijobiy tavsif etilgan va to'g'ri yo'lga o'tgan 53 nafar mahkum jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi. Jazo o'tashdan bo'yin tovlagan 5 nafar shaxsga nisbatan esa og'irroq jazo turi tayinlandi.

Rufat NABIYEV,
G'uzor tumani IIB Probatsiya guruhi inspektori, katta leytenant.

INSONIYLIK IFODASI

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz farmoniga binoan afv etilib, oilasi bag'riga yo'l olgan shaxslar orasida Guliston shahrida istiqomat qiluvchi fuqaro No'mon Rahimov (ismlar o'zgartirildi) ham bor. U qilmishi uchun chin dildan pushaymon. Ozodlik va oila bag'rida bo'lish qadrini yaxshi anglaganlardan. Eng muhimi, hayotda xotirjam, fayz-barakali yashashning birdan-bir yo'li halollik ekanini tushunib yetdi. Endilikda o'nlab o'zi qatori shaxslar bilan birgalikda hayotini boshqatdan boshlaydi.



Afv etilganlarni ijtimoiy hayotga reabilitatsiya qilish bo'yicha Sirdaryo viloyati IIB tomonidan alohida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, ularni ishga joylashtirish, salomatligini mustahkamlash, oilaviy muammolarini hal etish ko'zda tutilgan. Boshqarmada afv etilgan shaxslar ishtirokida bo'lib o'tgan yig'ilishda aynan shu masalalar muhokama qilindi.

Uchrashuvda, avvalo, Prezidentimizning afv etishga oid farmoni yuksak insoniylik namunasi ekani e'tirof etildi. Shuningdek, o'n beshga yaqin sirdaryoliklar berilgan imkoniyat uchun davlatimizdan minnatdor ekanini bildirishdi.

– Afv etilgan shaxslar doimiy nazoratimizda bo'lib, ularning har biri bilan alohida ish olib boriladi, – deydi viloyat IIB Probatsiya bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Kamoliddin Hamroqulov. – Maqsad ularning qayta

jinoyat yo'lga kirishining oldini olish, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratishdan iborat.

Viloyat IIB Probatsiya bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan dasturga binoan, afv etilgan

qilinib, o'ndan ortiq zamonaviy kasb-hunarlar o'rgatiladi. Kurslarni tugatgan shaxslar ushbu yo'nalishlarda ishga joylashtiriladi.

– Bizga qaratilgan e'tibordan nihoyatda minnatdormiz, – deydi N. Rahimov. – Qilmishimdan nihoyatda pushaymonman. Yaratilgan imkoniyatdan foydalanib, o'zimni yaxshi tarafdin ko'rsatishga harakat qilaman. Guliston shahrida avtomobillarni ta'mirlash ustaxonasi ochishni ko'zlaganman. Ichki ishlar xodimlari meni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga tayyor.

Muxtasar aytganda, yuksak insoniylik namunasi bo'lgan afv yuzlab insonlar va ularning oila a'zolariga cheksiz quvonch keltirdi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

2026-yil — Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili

AHILLIK HUKM SURAYOTGAN MASKAN

(Davomi. Boshlanishi
1-betda.)

Haqiqiy Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahallani ko'rmoqchi bo'lsangiz «Yangi Quva»ga keling. Bundan bir yil ilgari ushbu mahallaga borgan odam, bugun yana qayta borsa, tanimay qolishi turgan gap. Pastqam uylar, tor ko'chalar o'rniga yangi mahalla binosi, kutubxona, sport va vorkaut maydonchalari, yangi ko'p qavatli uylar bunyod etildi.

Xususan, 5,5 milliard so'm mablag' evaziga toza ichimlik suvi tarmog'i tortildi. 1,7 milliard so'mga oqava suvlarni mahalliy tozalash inshooti qurildi. 5 milliard so'm sarf etilib, yo'l infratuzilmasi butunlay yangilandi. Mahalliy tadbirkorlarning mablag'i hisobiga 68,9 milliard so'mlik savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari, 5 ta ko'p qavatli turarjoy, 37 milliard so'm hisobiga zamonaviy maktab bunyod etildi.

Qobiljon Yunusov raislik qilayotgan va 5300 nafardan ziyod aholi yashayotgan mahalla nafaqat obodligi, balki aholining bandligi, tadbirkorlik muhiti va ijtimoiy barqarorligi bilan ham o'rnak bo'lmoqda. Mahallaning asosiy drayveri — gulchilik va ko'chatchilik bo'lib, 865 ta xonadondan 450 tasida gul, 250 tasida daraxt ko'chatlari yetishtiriladi. 100 ta xonadonda issiqxona bor. Odamlar halol mehnat orqali daromad topib, havas qilsa arziydigan sharoitlarda yashamoqda.

Bugun «Yangi Quva»ning har bir ko'chasida qiyg'os ochilgan gullar, landshaft dizayni asosida ekilgan manzarali dov-daraxtlar, saranjom-sarish-talik, odamlarning ochiq chehrasi va ko'tarinki kay-

fiyati sharqona latofatni namoyon etmoqda.

— Mahallamiz markaziga kelgan odamning ko'ngli yayraydi, — deydi faollardan biri Feruza Quvvatova. — Ilgari bunday anvoyi gullar qayoqda deysiz... Binolar eski, ta'mirtalab edi. Bugun esa mahallamizning qiyofasi butunlay o'zgargan. Eng muhimi, odamlarning kayfiyati yuqori, yashashga va yangilanishga ishtiyoqi baland.

Mahalla fuqarolar yig'ini shundoqqina tutash xonadonlardan biriga kirsangiz, darrov atirgul hidi dimog'ingizni qitiqlaydi. Ushbu xonadon sohibi 70 yoshli To'liqinjon ota Dehqonov hovlisidagi 5 so-

ildizga yetkazish va hosildorlikni oshirishda katta samara beradi. Tashqarida havo harorati 35 darajaga yetgan kunlarda ham issiqxona ichi 22–24 daraja turganiga qoyil qolmay iloj yo'q.

— Gullarning ochilganini ko'rsam, kayfiyatim ko'tariladi, — deydi xonadon sohibi biz bilan suhbatda. — Ayniqsa, atirgulning hidi, uning gashti boshqacha. Issiqxonada ishlab, g'amtashvishlarni ham unutib yuboraman.

Xotin-qizlar faoli Sadoqatxon Haydamatovanning aytishicha, bugun mahallada birorta ishsiz fuqaro yo'q. Mahalladagi eng yirik loyihalardan biri bo'lgan «IVS-Textgroup» tikuvchilik



yaratish va eksport hajmini sezilarli darajada oshirish rejalashtirilgan.

— Mahalla ayollari uchun ham bu juda katta imkoniyat bo'ldi, — deydi tikuvchi Nasibaxon Ristayeva. — Ilgari hech qayerda ishlamay uyda o'tirardim, hozir esa o'zimni kerakli insonday his qilaman. Bu yerda sharoit yaxshi, issiq ovqat beriladi, oylik maoshimiz ham ko'ngildagidek.

O'tgan yil boshida davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga asosan mahalla hududida yangi huquq-tartibot maskani bunyod etilgach, jinoyat va huquqbuzarliklar salmog'i kamaydi.

— Maskanimizda barcha sharoitlar yaratilgan, alohida situatsion markaz tashkil etilgan, — deydi bosh inspektor, kapitan Xolmatjon Xolmatov. — «Yangi Quva» bilan birga «O'zbek», «Turk», «Boyiston» va «Yangi hayot» mahallalarini qamrab olgan holda xizmat olib boramiz. 5 ta mahalla hududiga 200 ga yaqin zamonaviy kuzatuv kameralari o'rnatilib, barchasi situatsion markazga integratsiya qilindi. «Xavfsiz ko'cha», «Xavfsiz yo'lak»lar tashkil etdik. Profilaktika inspektorlarimiz

patrul-post, yo'l-patrul va qo'riqlash xizmatlari xodimlari bilan hamkorlikda uch smenalik navbatchilik asosida faoliyat olib boryapti. Mahallamiz ko'chalarida yoritish chiroqlari, domofon va «tashvish tugmalari» o'rnatilgan. Shu bois tungi paytda yursangiz ham, xuddi kunduzgiday o'zingizni xotirjam his etasiz.

Bosh inspektorning qayd etishicha, «mahalla yettiligi» bilan hamkorlikda ijtimoiy profilaktika masalalari tizimli olib borilmoqda. «Xonadonbay» va «fuqarobay» usulida profilaktik ishlar to'g'ri tashkil qilinayotgani sababli joriy yilning o'tgan davrida 5 ta mahallaning birortasida jinoyat qayd qilinmadi va «yashil» hudud sifatida e'tirof etildi.

Gullarga burkangan ko'chalar, mehnatdan baxt topgan insonlar, yangilangan hayot — «Yangi Quva» ana shu jihatlar bilan haqiqatan ham boshqa mahallalarga namuna bo'la oladi. Chunki u Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahallaga aylangan.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



tix yerda zamonaviy issiqxona tashkil etgan. Bu yerda ikki turdagi 5 ming tup atirgul ko'chati parvarishlanmoqda. O'tgan yili 50 million so'm sof daromad qilgan oila vakillari bu yil guldin kelayotgan daromad cho'g'ini 150 million so'mga yetkazishni niyat qilishgan.

Issiqxonada tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan. Bu usul suvni tejash, mineral o'g'itni bevosita

fabrikasi 150 nafarga yaqin xotin-qizlarni bir joyda jamlab, ishli qildi.

Joriy yil yanvar oyida ish boshlagan mazkur korxonada asosan trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilib, to'g'ridan to'g'ri Belarus davlatiga eksport qilinmoqda. Shu kunga qadar 300 ming dollarlik mahsulot eksport qilindi. Yil yakuniga qadar qo'shimcha bino tashkil etilib, yana 100 ta yangi ish o'rne



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Jarayon

PROFESSIONAL KADRLAR
TRANSFORMATSIYASI

IIV AKADEMIYASI BO'YICHA:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlash tizimini transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Mazkur hujjat bilan IIV Akademiyasida professional kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, ta'limni amaliyot bilan yanada yaqinlashtirish hamda ilg'or texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng joriy etish bo'yicha muhim vazifalar belgilandi.

Akademiyada «School» tizimi joriy etiladi.

2026/2027-o'quv yilidan boshlab ta'lim jarayoni TOP-1000 universitetlar hamda «Yangi O'zbekiston» universiteti tajribasi asosida bosqichma-bosqich takomillashtiriladi.

Fakultet va kafedralar maqbulashtirilib, ular negizida maktablar va sho'balr tashkil etiladi.

Maktablar muayyan ixtisoslik bo'yicha kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqot olib borish hamda huquqni qo'llash amaliyotini ta'lim bilan integratsiya qilishga mas'ul bo'ladi.

Maktablarga IIV departament va

xizmat boshliqlari mas'ul direktor sifatida rahbarlik qiladi.

Kundalik o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va nazorat qilish ijrochi direktor zimmasiga yuklatiladi.

IT va sun'iy intellekt yo'nalishlari kuchaytiriladi.

Akademiyada zamonaviy texnologiyalar bo'yicha kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Jumladan:
dasturiy injiniring;
kiberxavfsizlik injiniringi;
kompyuter injiniringi — sun'iy intellekt;

uchuvchisiz uchish qurilmalarini boshqarish;
maxsus dasturiy ta'minot yo'nalishlari bo'yicha mahalliy va xorijiy mutaxassislar jalb etiladi.

Shuningdek, 2026–2030-yillarda ta'lim, texnologiya, innovatsiya va sun'iy intellekt masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy etiladi.



QABULDA YANGI IMKONIYATLAR

IIV akademik lieseylarida xakaton va startaplar g'olibi bo'lgan o'quvchilar dastlabki va maxsus kasbiy tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan taqdirda, belgilangan kvota doirasida Akademiya bakalavriatiga yakka tartibdagi yakuniy suhbatlarsiz qabul qilinishi mumkin.

Shuningdek, AKT sohasidagi OTMlarning 2-bosqichini tamomlagan talabalar uchun «Raqamli texnologiyalar sohasida jinoyatlarga qarshi kurashish» yo'nalishi bo'yicha «2+2» dasturi asosida maqsadli qabul mexanizmi joriy etiladi.

Kursantlar 1-kursdan amaliyotga yaqinlashtiriladi.

Ta'lim jarayoni kredit-modul tizimi asosida tashkil etiladi.

Kursantlar 1-kursdan boshlab IIV sohaviy xizmatlari va hududiy

bo'linmalariga biriktiriladi. Bu esa nazariy bilimlarni bevosita amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Bitiruvchi kurs kursantlariga o'qishni yakunlagunga qadar «katta serjant» maxsus unvoni beriladi.

Shuningdek, ta'lim dasturini o'zlashtira olmagan sababli kursantlar safidan chetlatilgan shaxslarga ichki ishlar organlarida safdor yoki serjantlar tarkibida xizmat qilish hamda 1–3 yil ichida Akademiyaga qayta tiklanish imkoniyati yaratiladi.

Professor-o'qituvchilarning malakasi oshiriladi.

Har yili kamida:

50 nafar professor-o'qituvchi — «Yangi O'zbekiston» universitetida;

30 nafar xodim — xorijiy ta'lim tashkilotlarida maqsadli stajirovka o'taydi.

MALAKA OSHIRISH
TIZIMI BO'YICHA:

Yuqoridagi qaror bilan Malaka oshirish institutining hududiy tarmog'i kengaytiriladi.

IIVning:

Farg'ona;

Jizzax;

Toshkent;

Surxondaryo

mintaqaviy o'quv markazlari IIV Malaka oshirish institutining filiallari sifatida qayta tashkil etiladi.

Nukus filialining kasbiy tayyorgarlik fakulteti esa «Serjantlar tayyorlash markazi» sifatida qayta tashkil etiladi.

«MOBIL KASBIY MALAKA OSHIRISH
KURSLARI» YO'LGA QO'YILADI

Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyaning:

o'rta bo'g'in rahbarlari;

jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi xodimlari uchun xizmat joylarining o'zida bosqichma-bosqich mobil kasbiy malaka oshirish kurslari tashkil etiladi.

Mashg'ulotlarga Akademiya, Malaka oshirish instituti va Jamoat xavfsizligi universitetining professor-o'qituvchilari hamda amaliyot xodimlari jalb etiladi.

AKADEMIK LITSEYLARDA STARTAP
VA INNOVATSIYALAR MARKAZLARI
TASHKIL ETILADI

IIV akademik litseylarida ta'lim oluvchilarning innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida startap loyihalar va innovatsiyalar markazlari tashkil etiladi.

Har bir idoraviy litseyning 5 nafar mutaxassisi «Yangi O'zbekiston» universitetida startap va xakaton loyihalarini amalga oshirish bo'yicha qisqa muddatli kurslarda o'qitiladi.

Iqtidorli o'quvchilar saralanib, ularning jamoat xavfsizligi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasiga qaratilgan startap loyihalarini qo'llab-quvvatlanadi.

LITSEYLARDAGI IQTIDORLI
YOSHLAR UCHUN
YANGI IMKONIYAT

Eng muhim yangiliklardan biri — xakaton va startaplar g'oliblarining belgilangan shartlar asosida IIV Akademiyasi bakalavriatiga yakuniy suhbatlarsiz qabul qilinishi mumkinligidir.

IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti.



To'maris izdoshlari

DILFUZANING HAYOT QOIDASI

Ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xotin-qizlar nafaqat o'z vazifasini sidqidildan bajarmoqda, balki sport sohasida yuksak natijalarga erishmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV TVBSO mutaxassis-feldsheri, serjant Dilfuza Ayimbetova shunday shijoatli xodimlardan biridir.

Oilaning kenjatoyi bo'lib ulg'aygan Dilfuza tabiatan epchil, xushchaqchaq va qat'iyatli edi. Katta opasi Ulmekenning izidan borib, sportning erkin kurash turiga mehr qo'ydi. Murabbiyi Aynura Japaqovanning o'git va ko'rsatmalarini qunt bilan bajargan Dilfuzaning dastlabki qadamlariyoq yuqori natijalar bera boshladi. Nukus olimpiya kolleji hamda Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining Jismoniy tarbiya fakultetidagi tahsil yillari esa u uchun chinakam mahorat maktabiga aylandi. Bu davrda u avval Qoraqalpog'iston, keyinchalik esa mamlakat miqyosidagi nufuzli musobaqalarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi.

Oliy ta'lim muassasasining so'nggi bosqichida o'qib yurgan kezlari Dilfuza akasi Niyazimbet kabi ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilishni ahd qildi. Bu niyat uni 2023-yilda Toshkent shahridagi Serjantlar tayyorlash oliy maktabiga yetakladi. O'qishni muvaffaqiyatli tamomlagach, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV TVBSOda xizmat faoliyatini boshladi.

Kasbiy faoliyatni va sportni birdek olib borayotgan matonatli qiz erkin kurash bo'yicha 15 karra Qoraqalpog'iston, 10 karra O'zbekiston chempioni hisoblanadi. Qolaversa, Islom birdamlik o'yinlari, BRIKS musobaqasi hamda O'rta Osiyo o'yinlarida ham yurtimiz sharafigi munosib himoya qildi.



Huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari o'rtasida o'tkaziladigan sport musobaqalarida ham Dilfuza Ayimbetova doimo faol. Xususan, 2025-yilda Toshkent viloyatida o'tkazilgan nufuzli «To'maris izdoshlari» musobaqasida u jamoaviy tarkibda faxrli 2-o'rinni egalladi.

– Sport insonni nafaqat jismonan sog'lom bo'lishga, balki murakkab vaziyatlarda sabr-bardoshli, intizomli va qat'iyatli bo'lishga o'rgatadi. Ana shu hayotiy tamoyillar kundalik xizmatimiz bilan uyg'unlashsa, aholining haqiqiy ishonchiga erishish mumkin. Men doimo shu qoidaga amal qilishga intilaman, – deydi qahramonimiz suhbat so'ngida.

Dilfuza Ayimbetova singari shijoatli, o'z kasbi va Vataniga sodiq qizlarning borligi yurtimiz tinchligi hamda kelajagimiz ishonchli qo'llarda ekanidan dalolat beradi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

MAQSAD – NAVBATDAGI DOVON

Xizmat burchiga sadoqat va sportga cheksiz mehr uyg'unlashganda yuksak natijalar yuzaga keladi. Yaqinda xizmat faoliyatini Metropolitenda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasida boshlagan Shahlo Egamberganova ana shunday irodali va sportsevar xodimalardan biridir.

Xorazm zaminida voyaga yetgan Shahlo sportning dzyudo turi bo'yicha 78 kg vazn toifasida yurtimiz sharafigi munosib himoya qilib kelmoqda. U yoshlar va qizlar o'rtasida uch karra O'zbekiston chempioni bo'lish barobarida, murabbiy Uchqun Murodov xotirasiga bag'ishlangan Osiyo kubogi musobaqasida g'oliblikni qo'lga kiritgan.

Shuningdek, Qozog'istonning Almati va Aqtau shaharlarida o'tkazilgan Osiyo kubogi bahslarida sovrindor



bo'lib, o'zining sport mahoratini namoyon etib, Yuldashev Nikolay Sunnatovich xotirasiga bag'ishlangan 13-Xalqaro turnirda g'oliblikni qo'lga kiritgan. Tailandning Bangkok shahrida bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida ham faxrli uchinchi o'rinni egallagan.

Shuningdek, 15–22-avgust kunlari Nukus shahrida ichki ishlar organlarining harbiy xizmatchi ayol va xodimalari o'rtasida o'tkazilgan «To'maris izdoshlari» musobaqasida ham jamoaviy o'yinlarda munosib ishtirok etdi.

Bugungi kunda safdor Shahlo Egamberganova mas'uliyatli xizmat faoliyatini sport bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtirib, tajribali murabbiy Sharif Xudayberganov qo'l ostida joriy yilning noyabr oyida bo'lib o'tadigan O'zbekiston chempionatiga puxta tayyorgarlik ko'rmoqda.

– Yosh sportchi va safdor xodimaning asosiy maqsadi navbatdagi chempionlikni qo'lga kiritish, xalqaro musobaqalarda ham Vatanimiz sharafigi munosib himoya qilishdir. Ishonamizki, uning matonati, intilishi va mehnatsevarligi yangi-yangi zafarlarga yo'l ochadi.

Dilafuz OBLOQULOVA,
IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti MXTB safdor xodimi.



OG'IR HUDUDDAN – OSOYISHTALIK SARI



Buxoro tumani markazida joylashgan Oybek nomli mahallada dehqon bozori, yoqilg'i quyish shoxobchasi, o'nga yaqin kafe, restoran va to'yxonalar faoliyat yuritadi. Viloyatning «qon tomiri» hisoblangan M-37 avtomagistral yo'li ham shu hududdan o'tadi. Aholi gavjum, transport serqatnov bo'lgan bunday maskanda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish oson emas. 2022-yilda mahallada 18 ta jinoyat qayd etilgani ham buning isboti. Ana shunday murakkab sharoitda xizmat faoliyatini boshlagan profilaktika katta inspektori, mayor Aminjon Avezov qisqa fursatda kriminogen vaziyatni tubdan o'zgartirishga erishdi.

– Mahallada xizmat faoliyatimni boshlaganimda hudud juda og'ir ahvolda edi. Bezorilik, o'g'rilik, firibgarlik hamda giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar ko'p sodir etilardi. Jinoyatlarining aksariyati qo'shni tuman va shaharlardan kelgan fuqarolar tomonidan sodir etilgani uchun jinoyat «o'choqlari» hisoblangan joylarda profilaktik tushuntirish va targ'ibot ishlarini kuchaytirdik, – deydi mayor A.Avezov.

Profilaktika tadbirlari manzilli va tizimli tashkil etildi. Mahalla faollari, jamoatchilik vakillari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, muammoli xonadonlar alohida nazoratga olindi. Aholi xonadonlari uch toifaga ajratilib, «qizil» toifadagi oilalar bilan muntazam ish olib borildi. Natijada 2023-yilda mahallada qayd etilgan jinoyatlar soni 18 tadan 4 taga tushdi. 2024-yilda esa mahalla butunlay jinoyatdan xoli



hududga aylandi. Mana, uch yildan beri mahalla «yashil» toifada.

Hududda xavfsizlikni ta'minlashda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga ham e'tibor qaratildi. 2024-yildan boshlab ko'chalarning kirish-chiqish joylariga kuzatuv kameralari o'rnatildi. Natijada 10 ta ko'chani 8 tasi «xavfsiz ko'cha»ga aylantirildi. Qolgan ikki

ko'chada «xavfsiz yo'laklar» tashkil etildi. Bu ishlar mahalla aholining xotirjamligini ta'minlash bilan birga, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mahallada yoshlar va bolalar salmog'i yuqori ekani bois ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Turli

tadbirlar, sport musobaqalari va ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar tashkil qilinib, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishiga sharoit yaratildi.

Mahallada oilaviy muhitni sog'lomlashtirish borasida ham yaxshi tajriba shakllangan. Kayvoni onaxonlar yosh oilalar bilan suhbatlar o'tkazib, ularga o'zlarining hayotiy tajribalari asosida maslahatlar bermoqda.

Bu kabi profilaktik ishlar natijasida uchta nizoli oila yarashtirildi.

Profilaktika xizmatida muqaddam sudlangan shaxslar bilan ishlash alohida ahamiyatga ega. Ular bilan muntazam profilaktik suhbatlar o'tkazilib, ishsizlari mehnatga jalb qilinmoqda. Jumladan, I.Xayrullayev avtomashinalarni tuzatish ustaxonasiga, R.Ibragimov elektr payvandlash ustaxonasiga, S.Ma'ripov va L.Atoyevlar novvoylik sexiga ishga qo'yildi. Spirtli ichimlikka ruju qo'ygan uch nafar shaxs esa narkologiya dispanseriga davolanish uchun joylashtirildi.

Mayor Aminjon Avezovning fidokorona mehnati, fuqarolar bilan yaqin hamkorligi va hududda tinchlik-osoyishtalikni ta'minlashdagi xizmatlari bir necha bor munosib taqdirlangan. Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida Prezidentimiz farmoniga binoan, «Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan mukofotlangani esa uning ko'p yillik samarali mehnatiga berilgan yuksak baho bo'ldi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



VATANIMGA SADOQAT BILAN XIZMAT QILAMAN!

Osoyishtalikni ta'minlash, insonlar xavfsizligini asrash va huquq-tartibotni mustahkamlash mas'uliyati har bir ichki ishlar xodimidan sadoqat va matonatni talab etadi. Bu yo'lda yillar davomida sidqidildan xizmat qilib, kasbiga va burchiga sodiq qolgan xodimlar mehnati munosib e'tirof etilmoqda.

Davlatobod tumani IIB JXX JTSB Patrul-post xizmati bo'linma komandiri, safdor Kamoliddin Rahimov ham ana shunday fidoyi xodimlardan.

– Kamoliddin xizmat vazifalariga mas'uliyat bilan yondashadi. Berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi, kasbiy mahorati bilan hamkasblari o'rtasida ibrat ko'rsatmoqda. Ayniqsa, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va tezkor-profilaktik tadbirlardagi faol ishtiroki e'tiborga loyiq. U o'z tajribasini yosh xodimlarga o'rgatib, «Ustoz-shogird» an'alarini davom ettirib kelmoqda, – deydi tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik O. Xo'jaqulov.

2007-yildan buyon ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan

K.Rahimov ikki yildirki, Davlatobod tumani IIBda bo'linma komandiri sifatida faoliyat yuritib, shaxsiy tarkib xizmatiga rahbarlik qilish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish vazifalarini bajarimoqda.

Joriy yilda bo'linma shaxsiy tarkibi bilan hamkorlikda qidiruvda bo'lgan 2 nafar shaxs ushlendi, 3 ta ochilmagan o'g'rilik jinoyati fosh etildi, narkotik moddalar muomalasi bilan bog'liq 2 ta jinoyat aniqlandi, 1100 dan ortiq ma'muriy huquqbuzarliklar fosh etildi.

Safdor Kamoliddin Rahimov uchun jamoada intizomni ta'minlash, xodimlarni kasbga sadoqat ruhida tarbiyalash va har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish muhim mezonlardan. Ana

shu mezonlarga og'ishmay amal qilgan qahramonimiz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga ko'ra, «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.

– Xizmatda hushyorlik, intizom va jamoaviy hamjihatlikni birinchi o'ringa qo'yamiz. Mukofot men uchun katta sharaf, ayni paytda, zimmamdagi mas'uliyatni yanada chuqurroq his etishga undaydi, – deydi u.

Har bir kasbning o'z sharafi bor. Ichki ishlar xodimi uchun bu sharaf – odamlar ishonchini oqlashda namoyon bo'ladi. Kamoliddinning xizmat yo'li ham ana shu ishonchni asrash, berilgan vazifani sidqidildan bajarish va jamoat osoyishtaligiga daxldorlik tuyg'usi bilan yo'g'rilgan.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



Poytaxtimizning Uchtepa tumani IIOFMB 4-sonli IIB HPB profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Shoim Qarshiyev ham ana shunday fidoyi xodimlardan biri. U qariyb 35 yildirki, poytaxtning turli mahallalarida aholi bilan yelkama-yelka ishladi. Huquqbuzarliklarning oldini olish, oilalarni yarashtirish, muam-molarga yechim topish, adash-ganlarni to'g'ri yo'lga qaytarish maqsadida sidqidildan mehnat qildi. Ayni paytda tumanning «Nayman» mahallasida xizmat qilmoqda. Yaqinda uning ko'p yillik mashaqqatli va sharaflı mehnati yuksak baholanib, Prezidentimiz farmoniga asosan, «Mardlik» ordeni bilan taqdirlandi.

KABINETDA EMAS, XALQ ORASIDA

Profilaktika inspektorining ishi odamlar orasida yurishni, ularning dard-u tashvishlariga sherik bo'lishni, har bir xonadon taqdiriga befarq qaramaslikni taqozo etadi. Shoim Qarshiyev esa bu haqiqatni ko'p yillik xizmat faoliyati davomida chuqur anglab yetgan.

– Xonadonma-xonadon yurishdan erinmaslik kerak. Shundagina jinoyatlarning oldini olishga erishish mumkin. Hozir kabinetda o'tirib ishlaydigan zamon emas. Xalq orasida bo'lish, odamlarning dard-u tashvishlari bilan yashash kerak, – deydi lavhamiz qahramoni.

Uning mahalladagi obro'si ham odamlar bilan samimiy munosabat, e'tibor va ishonchdan shakllangan. Aholi uni nafaqat xizmat libosida, balki formasiz holda ham darhol taniydi, salomlashadi, hol-ahvol so'raydi. Bu esa profilaktika inspektori uchun har qanday rasmiy bahodan-da yuksakroq e'tirofdir.

USTOZ SABOG'I

Shoim Qarshiyev ko'p yillik xizmati davomida yosh xodimlarga o'z taj-

BURCH BERGAN AXT



Har bir tinch va osuda mahallaning ortida uning xotirjamligi yo'lida kecha-yu kunduz xizmat qilayotgan insonlar bor. Ular uchun «xizmat vaqti» degan tushunchaning o'zi nisbiy. Har qanday xabar va xatarga shay turishadi. Chunki mahalladagi har bir xonadon, har bir oila, har bir insonning muammosi profilaktika inspektori uchun begona emas.

ribasini o'rgatib kelmoqda. Uning shogirdlaridan biri, katta leytenant Abdulatif Nurimov ustozı haqida shunday deydi:

– Shoim aka menga doim ustozlik qilib kelgan. Birinchi navbatda, sadoqat bilan xizmat qilish kerakligini, fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida va qonuniy hal etish zarurligini o'rgatadi. Kecha-yu kunduz, qaysi vaqt bo'lishidan qat'i nazar, xizmatga shay holatda bo'lishimiz kerakligini uqtiradi.

Shoim Qarshiyevning shogirdlariga aytadigan eng oddiy, ammo hayotiy qoidasi bor: fuqaro bilan to'g'ri muomala qilish, chaqirganda tezda yetib borish, aldamaslik va nopok yo'lga kirmaslik.

«BU MUKOFOT – ONAMNIKI»

Davlat mukofoti haqida gap ketganda, Shoim Qarshiyevning ovozi-da alohida hayajon seziladi. Albatta, bu xushxabar uning o'zi bilan birga, oila a'zolarini ham quvontirdi. Ammo uning ko'nglida eng avvalo onasi –

salkam 80 yoshni qarshilagan Rohat aya xayoli gavalandi.

– Onajon, bu mukofot sizniki, dedim, – deydi Shoim aka.

Darhaqiqat, farzandi erishgan har bir yutuq ortida onaning duosi, oilaning qo'llab-quvvatlashi bor. Shoim Qarshiyev uchun yuksak mukofot ham shu ma'noda butun oilaning quvonchi.

KASB OILADA DAVOM ETMOQDA

Qahramonimizning uch nafar qizi va bir o'g'li bor. Farzandlarini tarbiyalab, kamolga yetkazishda turmush o'rtog'i Mushoiraxon opa bilan yelkadosh bo'ldi. Oiladagi mehr va tarbiya o'z samarasini berdi. Qizlari Malika va Yulduz onasining kasbini tanlab, o'qituvchilik yo'lidan bordi. Kenja qizi Nilufar esa otasining kasbini tanladi. IIV Akademiyasini tamomlab, ayni paytda Olmazor tumani tergovchi lavozimida xizmat qilmoqda. Shunday qilib, otaning kasbga sadoqati qizining hayotida ham o'z ifodasini topdi.

«XALQIMIZ TINCH BO'LSA – MENGA SHU BAXT»

Podpolkovnik Shoim Qarshiyevning tabiatida bir qarashda qarama-qarshi tuyuladigan, aslida esa bir-birini to'ldirib turadigan ikki jihat bor. U kundalik hayotda yumshoq-fe'l, xushchaqchaq inson. Ammo xizmatda talabchan va qat'iyatli. Egnidagi libosning zalvorini his qiladi. Qachon, qayerda va o'zini qanday tutishni yaxshi biladi. Oilada esa mehribon ota. Farzandlarining kamolini ko'rish, qizlarini o'zlari tanlagan insonlarga uzatish, nabilalarini erkalatish – uning uchun xizmatdan keyingi eng katta baxt. Ammo uning hayotida xizmat va oila bir-biridan ajralgan tushunchalar emas. Uning farzandlari ham otasining kasbi va hayot yo'lga hurmat bilan qaraydi.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Abu KENJAYEV olgan surat.



MEHNATGA MUNOSIB RAG'BAT

Oltinsoy tumani IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi katta inspektori, mayor Kamoliddin Payanov «Shakarqamish» mahallasida xizmat qiladi. 3300 nafardan ziyod aholi istiqomat qiladigan hududda u mahalla faollari, nuroniylar va ko'chaboshilar bilan yaqin hamkorlikda ish olib bormoqda. Oilalardagi nizoli vaziyatlarni barvaqt aniqlash, bartaraf etish va huquqbuzarliklarning oldini olishga alohida e'tibor qaratilayotgani bois, o'tgan yildan beri mahallada birorta ham jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.



ishga, muammosini tushunishga harakat qiladi. Ayniqsa, yoshlar bilan ishlashga jiddiy e'tibor qaratadi. Chunki birgina yoshning noto'g'ri yo'lga kirib ketishining oldini olish – kelgusidagi ko'plab ko'ngilsizliklarni bartaraf etish demakdir. Shu sababli yoshlar bilan ochiq muloqot qiladi; ularni tinglashni afzal ko'radi.

Mayor Kamoliddin Payanovning aholi bilan muomalasida rasmiylikdan ko'ra samimiyat, talabchanlik va bag'rikenglik ustuvor. U har bir fuqaro bilan suhbatlash-

Kamoliddin Payanov xizmat faoliyatini 2021-yilda Sariosiyo tumani Qo'riqlash bo'limida boshlagan. Ke-

yinchalik Oltinsoy tumani-ning «Olmazor», «Ovchi» va «Karsagan» mahallalarida profilaktika inspektori sifatida xizmat qilgan. O'tgan yillar davomida u qidiruvdagi shaxslarni qo'lga olishda hamda qator jinoyatlarni fosh etishda jonbozlik ko'rsatdi.

Qahramonimizning bu kasbni tanlashida padari buzrukvorı muhim o'rin tutgan. Uning otasi Denov tumani IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'limida xizmat qilgan.

– Otam doimo: «Xalqqa xizmat qilish – ham savobli, ham sharaflı ish», deb aytardilar. Ushbu o'gitga amal

qilib, men ham elga xizmat qilish maqsadida shu kasbni tanlaganman, – deydi u.

Mayor Kamoliddin Payanovning xizmatdagi fidoyiligi davlatimiz tomonidan munosib baholandi. U Prezident farmoniga muvofiq «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.

– Ushbu mukofotni vazirimiz qo'lidan olar ekanman, qalbimda cheksiz faxr va hayajonni tuydim. Buning uchun ota-onam va ustozlarimdan minnatdorman. Bu yutuqni yurtimizda yaratilgan imkoniyatlar hamda tinchlik-osoyishtalikning amaliy

samarasi deb bilaman, – deydi mayor.

Lavhamiz qahramoni uchun xizmat – shunchaki kasb emas, balki hayot tarzi va e'tiqodi va zimmasidagi mas'uliyatdir. U uchun bir oilaning totuvligi, bir yoshning to'g'ri yo'lga qaytishi yoki fuqaroning muammosi hal bo'lishi – eng katta natija. Zero, el tinchligi – katta boylik, xalq ishonchiga sazovor bo'lish esa oliy sharafdir.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Ichki ishlar organlari tashkil topganligining 35 yilligi oldidan

MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI?!

Men O'zbekistonni, avvalo, shu yurtida tug'ilib-o'sganim, uning tinch osmoni, bag'rikeng xalqi va ertangi kunga ishonch bilan qadam tashlayotgani uchun sevaman. Ichki ishlar organlari xodimi sifatida esa Vatanga bo'lgan muhabbatim yana bir yuksak mas'uliyat bilan boyigan.



Mustaqillikning dastlabki yillarida ichki ishlar organlarining asosiy vazifasi mamlakat tinchligi, jamoat xavfsizligi va fuqarolar osoyishtaligini ta'minlashdan iborat edi. Vaqt o'tishi bilan tizim nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi, balki inson huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi xizmatga aylanib bordi. Bugungi kunda har bir xodimning faoliyatida «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu o'zgarishlar ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash bilan bir qatorda, jamoatchilik bilan hamkorlikni ham yangi bosqichga olib chiqdi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar tizim faoliyatini yanada zamonaviylashtirishga xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalari xizmat jarayoniga keng tatbiq etilmoqda. Biometrik identifikatsiya, raqamli kriminalistika, videokuzatuv tizimlari, elektron ma'lumotlar bazalari va intellektual tahlil vositalari xodimlarning ish samaradorligini sezilarli oshirdi. Ilgari ko'p vaqt talab qilgan jarayonlar bugun qisqa fursatda, aniq va shaffof tarzda amalga oshirilmoqda. Bu esa ham xodimlar mehnatini yengillashtirdi, ham fuqarolar uchun qulayliklar yaratdi.

Ichki ishlar organlari tizimida «Inson qadrini ulug'lash» tamoyili tobora mustahkamlanmoqda. Mahallalarda profilaktika ishlarining kuchaytirilishi, xotin-qizlar, yoshlar va nuroniylar bilan manzilli ishlash, huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan yangi yondashuvlar tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. Bugun har bir mahalla xavfsizligi uchun mas'ul tizim shakllanib, aholi bilan muloqot va hamkorlik kuchaydi.

Men ichki ishlar organlarida xizmat qilishni oddiy kasb emas, balki Vatandagi muqaddas burch deb bilaman. Har kuni

xizmat libosini kiyganimda, o'rtimda butun xalqimning ishonchi turganini his qilaman. Shu ishonch insonni yanada mas'uliyatli, vijdonli va fidoyi bo'lishga undaydi. Zero, Vatand tinchligini asrash – katta sharaf.

O'zbekistonni sevish – uning mustaqilligini mustahkamlash, qonunlariga hurmat bilan qarash va xalq tinchligiga munosib hissa qo'shish demakdir. Shuning uchun ham «Men nechun sevaman O'zbekis-

tonni?» degan savolga javobim bitta: chunki bu yurt menga erkinlik, sharaflı burch va xalqimga sidqidildan xizmat qilish baxtini bergan muqaddas Vatandir!

Sherzodbek NURIDDINOV,
Andijon viloyati IIB
Axborot xizmati boshlig'i,
mayor.

Qo'shqanotlar

BAXTINGIZGA KO'Z TEGMASIN

Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumani ichki ishlar organlarida xizmatda qo'shqanot bo'lib ishlayotgan oilalar bir nechta. Yaqinda ularning safiga yana bir juftlik qo'shildi. Bu leytenantlar – Muhammadjon va Mahzunaxon Abdurashidovlar oilasi.

Ikki qalbnıng ilk uchrashuvi IIV Farg'ona akademik litseyidan boshlangan. Bir dargohda, bir guruhda tahsil olgan yoshlarning hayot yo'llari keyinchalik tutashib ketishini o'shanda hech kim xayoliga ham keltirmagan edi. Ular akademik litseyni tamomlagach, IIV Akademiyasida ham birga o'qishdi. 2022–2025-yillarda birga o'tgan kursantlik davrlari o'rtadagi hurmat va ishonchni yanada mustahkamladi.

Baxtni qarangki, Muhammadjon va Mahzunaxon o'qishni tamomlagach, bir joyga – Uchko'prik tumani IIBga ishga tayinlandi. Shu yerda ularning taqdiri uzilmas rishtalar bilan chambarchas bog'landi.

– Onam kelinlikka nomzodlar qidirayotgan paytda, avvalo, mening fikrim va tanlovimni so'radi, – deydi Muhammadjon. – Mahzunaxonni ikkala ta'lim dargohida birga o'qigan yillarimdan yaxshi bilaman. Yillar davomida shakllangan o'zaro hurmat va ishonch uni turmush o'rtoq sifatida tanlashimga sabab bo'ldi. Tanlovimni onamga aytdim. Ular-ga ham juda ma'qul keldi va to'y taraddudi boshlandi.



Bu oilaning dunyoga kelishida yana bir insonning hissasi borligini alohida ta'kidlash kerak.

Muhammadjon tomonidan ke-
linning xonadoniga sovcilikka
borgon inson ham ular uchun

begona emas edi. IIV Farg'ona akademik litseyida sinf rahbari bo'lgan, iste'fodagi podpolkovnik Qahramonjon Eminov yoshlarning bir-biriga bo'lgan munosabati, ularning tarbiyasi va insoniy fazilatlarini yaxshi bilgani uchun hech ikkilanmay Muhammadjonning bobosi bilan birga qizning uyiga sovcilikka bordi.

Bugun ular nafaqat hayotda, balki xizmatda ham bir safda. Leytenant Muhammadjon Abdurashidov Uchko'prik tumani «Yulg'unzor» mahallasida profilaktika inspektori sifatida aholi osoyishtaligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va mahallada xavfsiz muhitni qaror toptirish yo'lida xizmat qilmoqda. Mahzunaxon Abdurashidova esa tuman IIB JXX HPGda inspektor-psixolog bo'lib ishlayapti.

Safdoshlari har kuni ishga birga kelib, uyga birga qaytadigan bu qo'shqanotlarga havas bilan qarashadi. Zero, ularning taqdirida kasbga sadoqat va oilaviy muhabbat bir-birini to'ldirib turibdi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

Память

ВСЕГДА В НАШИХ СЕРДЦАХ...

Я – журналист. Профессия научила меня работать со словом, находить точные формулировки, воплощать в тексте чужие истории, радости, драмы... Но не допускала мысли, что настанет день, когда придется писать эту статью.

Хочу рассказать о человеке, чье имя останется моей гордостью и болью.

Все началось в далеком детстве. В памяти отчетливо запечатлелся образ отца. Помню, как замирала от восхищения каждый раз, когда он надевал форму сотрудника органов внутренних дел. Наша семья осознавала, чего стоит его работа – сколько в ней ответственности. В 2004 году отец, Тажибаев Абат, вышел на заслуженный отдых. Он хотел, чтобы кто-то из детей пошел по его стопам. Тогда мы выбрали иной путь, но судьба – удивительная вещь. Она решила выполнить желание папы спустя годы, приведя в мою жизнь человека в форме.

В 2020 году в социальных сетях познакомилась с молодым человеком. «Зовут меня Нурсултан, учусь в Академии МВД, приехал домой на летние каникулы», – написал он мне в первом сообщении. Уже по короткой переписке я почувствовала, насколько он спокойный, рассудительный, воспитанный.

Дальше наша история развивалась как в сказке. Почти полгода общались на расстоянии. Первую встречу

не забуду никогда. В руке у него была роза. Я немного опоздала, но он лишь тепло улыбнулся и с легким смущением пошутил, что переживал за розу – как бы она не замерзла до моего прихода...

Пролетели три года. Нурсултан нес службу в Берунийском районе, я училась в магистратуре. В какой-то момент он твердо сказал: «Больше так нельзя, пора создавать семью».

За три с половиной года наполненной согласием семейной жизни у нас родились две дочери.

Старший лейтенант Нурсултан Калмуратов достойно нес службу в Кегейлийском районе. Каждую свободную минуту, редкие выходные он посвящал семье. Был чутким супругом и отцом. С каким трепетом он держал малышей на руках, как искренне радовался их первым шагам! Казалось, впереди у нас будущее, полное праздников, детского смеха и новых успехов. Все складывалось так прекрасно...

Однако 31 мая 2025 года моя жизнь разделилась на

«до» и «после».

Около восьми часов вечера мы, как обычно, поговорили по телефону. Муж сказал, что завтра уезжает в Ташкент на соревнования, и добавил: «Утром буду дома, подготовь все, пожалуйста». Я спокойно ответила: «Хорошо, дорогой, все сделаю, жду тебя».

Вечером, когда укладывала дочек спать, в тишине квартиры раздался резкий телефонный звонок. Голос на том конце провода попросил позвать родителей: «Ваш сын попал в автоаварию...» Сердце сжалось от леденящего предчувствия. Родители мужа мгновенно собрались и уехали в больницу, я осталась дома с малышками. Час ожидания стал самым длинным, тяжелым и темным в моей жизни.

К огромному сожалению, чуда не произошло. Жизнь Нурсултана оборвалась на взлете...

Он остался в нашей памяти не только заботливым



ног, нашей семье была оказана неоценимая поддержка. Помогли и с приобретением жилья для нас, протянули руку помощи, когда заболела младшая дочь.

Нурсултан был человеком удивительной проницательности. Готовя меня к поступлению в докторантуру, он оплачивал репетитора по английскому языку, искренне верил и поддерживал. Таким образом он словно заранее строил надежную опору для дочерей, закладывал фундамент для дальнейшей достойной жизни. Сегодня я – докторант Каракалпакского государственного университета имени Бердаха. Продолжаю работать, учиться, развиваться, делаю все ради будущего дочек.

...Папа мечтал, чтобы кто-то из его детей связал жизнь с органами правопорядка. Сегодня я знаю точно: в будущем приложу силы к тому, чтобы одна из дочерей получила юридическое образование и надела форму. Это станет не просто исполнением мечты моего отца, но и продолжением дела Нурсултана.

Шахноза ПЕРДЕБАЕВА.


Республика Каракалпакстан.

Молодежь – наше будущее

– Умение спокойно и уверенно остановить назревающий конфликт, выслушать человека без предвзятости и получить сведения там, где прямое давление заходит в тупик – показатель психолого-коммуникативной компетентности, – говорит старший психолог УООП ГУВД города Ташкента лейтенант Ботиржон Уткуров.

Ботиржон – выпускник Санкт-Петербургского университета МВД России, где обучался по направлению «Психологическое обеспечение служебной деятельности». В 2024 году ступил на профессиональную стезю. Еще в период обучения в вузе герой очерка проходил практику в подразделениях столичного ГУВД, так что с нынешними коллегами был уже знаком. А потому вхождение в ритм подразделения прошло естественно, позволив сразу включиться в решение вопросов.

– И все же никакой учебник не заменит реального совета, – делится Ботиржон. – Большую роль в моем становлении сыграли старшие товарищи: лейтенант Даврон Карамирзаев, работающий в духовно-просветительской сфере, старший психолог капитан Нодирабегим Ибадуллаева.



На снимке: лейтенант Б. Уткуров (справа) проводит индивидуальную консультацию.

Сегодня Б. Уткуров проводит индивидуальные консультации, организует групповые тренинги «Стресс и аутогенные упражнения», «Межличностные отношения и приемы разрешения конфликтных ситуаций» для сотрудников, ответственных за укрепление правопорядка и профилактику право-

нарушений. Одним из последних мероприятий стал тренинг для вновь принятых в ППС, где они получили рекомендации по адаптации в коллективе.

Б. Уткуров повышает профессиональный уровень. Им уже опубликовано несколько научно-прикладных статей. Он участвовал в конферен-

циях «Развитие научных и педагогических технологий в военной образовательной системе», «Перспективы служебной психологии».

Мы попросили специалиста сформулировать для читателей базовые правила, помогающие сохранять самообладание и психологическую устойчивость.

– Кратко их можно обозначить так, – резюмировал лейтенант Б. Уткуров. – Контролируйте эмоциональный фокус. Освойте приемы экспресс-саморегуляции (например, дыхательные техники, позволяющие вернуть ясность мышления). Развивайте навыки общения: овладейте приемами активного слушания для конструктивного диалога с гражданами, проявляйте эмпатию к коллегам. Своевременно обсуждайте сложные ситуации с наставником или психологом.

Радик ТУМΠΑРОВ,
собр. корр.

ФОРМУЛА САМООБЛАДАНИЯ

Служебный день сотрудника ОВД соткан из контактов с разными людьми. Это пострадавшие, деструктивно настроенные правонарушители, свидетели происшествий. В условиях столь разнородного общения психологические знания становятся важным инструментом решения оперативно-служебных задач.

► **International cooperation**

A meeting of the Ministers of Internal Affairs and public safety in the “Central Asia – China” format was held in Beijing. It was attended by the Ministers of Internal Affairs of the Central Asian countries and the leadership of China’s Ministry of Public Security. The Uzbek delegation was headed by the Minister of Internal Affairs, lieutenant general Aziz Tashpulatov.

The meeting addressed ways to strengthen cooperation in combating terrorism and extremism, organized crime, illicit drug trafficking, human trafficking, and cybercrime, as well as the importance of rapid information exchange and the effective use of modern technologies.

As part of the event, an opening ceremony was held for a training center established for law enforcement officers from Central Asian countries and China. The center will serve as an important platform for enhancing professional training, sharing best practices, and developing practical skills among specialists.

CONSISTENT COOPERATION AND SHARED RESPONSIBILITY FOR SECURITY

Chinese minister of public security Wang Xiaohong presented Uzbekistan’s Minister of Internal Affairs, Aziz Tashpulatov, with the “Great Wall” commemorative badge as a symbol of the development of bilateral cooperation.

During the bilateral meeting, the sides agreed to continue the consistent implementation of the 2026–2027 roadmap. Priority areas of cooperation include combating terrorism and transnational crime, cybersecurity, digital forensics, biometric identification, modern forensic technologies, as well as the use of police aviation and drones.

The meeting concluded with the identification of important tasks aimed at expanding the exchange of experience and practical cooperation in ensuring security.

► **Followers of Tomyris****DILFUZA’S LIFE PRINCIPLE**

Sergeant Dilmuza Ayimbetova, a medical feldsher and specialist at the Rapid response mobilization unit of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Karakalpakstan, is one of the dedicated



officers who successfully combines professional service with sport.

Following in the footsteps of her elder sister Ulmeken, Dilmuza took up freestyle wrestling. The guidance of her coach Aynura Japaqova, as well as her studies at the Nukus Olympic College and the faculty of physical education at Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, played an important role in developing her sporting skills.

Today, she is a 15-time champion of Karakalpakstan and a 10-time champion of Uzbekistan in freestyle wrestling. She has also proudly represented Uzbekistan at the Islamic Solidarity Games, BRICS competitions and the Central Asian Games.

After graduating from the Higher School for sergeant training in Tashkent in 2023, Dilmuza began her service at the Rapid response mobilization unit of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Karakalpakstan. She also actively participates in sports competitions among law enforcement officers. In 2025, she won second place as part of her team at the “Followers of Tomyris” competition held in Tashkent region.

– Sport teaches a person not only to be physically healthy, but also to remain resilient, disciplined and determined in challenging situations. I always strive to follow this principle in my life, – says Dilmuza Ayimbetova.

► **Dedication****HAPPINESS FOUND IN DUTY**

For nearly 35 years, lieutenant colonel Shoim Qarshiyev, senior inspector of the Prevention DIA № 4 of Uchtepa district, Tashkent, has been serving to ensure public peace and security, prevent offenses, and help citizens resolve their problems. Currently serving in the “Nayman” mahalla, his many years of dedicated service were recently recognized with the “Mardlik” (Courage) order, awarded by Presidential decree.

Shoim Qarshiyev’s principle of service is simple: a prevention inspector should not remain in an office but should be among the people. His sincere relations with residents and years of experience have earned him great respect in the neighborhood. He

also shares his experience with young officers, emphasizing the importance of treating citizens with respect and being ready to serve at any time and in any situation.

Speaking about the “Mardlik” order, Shoim Qarshiyev first thinks of his mother, Rohat Aya. In his view, behind every achievement stand a mother’s blessing and the support of the family.

His dedication to the profession has also inspired his children. His daughters, Malika and Yulduz, chose teaching as their profession, while his youngest daughter, Nilufar, graduated from the Academy of the Ministry of Internal Affairs and currently serves as an investigator in Almazor district.



For Shoim Qarshiyev, the greatest happiness is seeing his people live in peace and tranquility.

► **A safe mahalla****FROM A RISK AREA TO PEACE AND SAFETY**

Oybek mahalla, located in the center of Bukhara district, is one of the most crowded and busiest areas, with heavy traffic. The M-37 highway, a farmers’ market, a fuel station, cafés, restaurants and wedding halls operate in the area, making it more challenging to ensure public safety.

In 2022, 18 crimes were recorded in the neighborhood. It was under such difficult circumstances that major Aminjon Avezov, a senior prevention inspector, began his service.

Working closely with the local community, he introduced targeted and systematic preventive measures. Problematic households were placed under special supervision, while regular work was carried out with families classified as being in the “red” category.

As a result, the number of crimes fell to four in 2023, and in 2024 the neighborhood became completely crime-free. Today, it remains in the “green” category.

Modern surveillance cameras have also been effectively used to improve security. Eight of the mahalla’s ten streets have been designated as “safe streets”, while “safe pathways” have been established on the remaining two streets.

Effective measures have also been taken to work with young people, reconcile families experiencing conflicts, and help previously convicted and unemployed citizens find employment.

Major Aminjon Avezov’s dedicated service has been recognized on several occasions. On the eve of the 35th anniversary of Uzbekistan’s independence, he was awarded the “For faithful service” medal by Presidential Decree.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

Mulohaza

UNDA ODAMLAR NIMA QILADI?

Bugun sun'iy intellekt jamiyatni biroz o'ylantirib qo'ydi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, u ko'z ko'rib, quloq eshitmagan ixtirolari bilan ko'pchilikni hayratga solayotgani bor gap. Kimdir bundan xursand bo'lsa, boshqa birov ranjigan.

Keling, gapni ranjigandan boshlay qolaylik.

– Talaba edim. Domlamiz har birimizga o'zingiz sevgan shoirning birorta she'rini tahlil qilib keling, degan topshiriq berdi, – deb xotirlaydi taniqli shoira Go'zal Begim. – Topshiriq bo'yicha Rauf Parfining ushbu she'rini tahlil qilgandim.

Aylanib tushar

qor yo'limga

Qo'lingni qo'ygil

yor qo'limga.

Sen qolding

muhr kabi labimda

Sen bir dard

asabiy qalbidam.

Ko'zimga berkitay va lekin

Yoshday oqib ketma,

sevgilim.

She'rni qay darajada to'g'ri tahlil qila oldim, buni bilmayman. Chunki she'rda «Yoshday oqib ketma, sevgilim» satri ruhiyatimni seahrlab tashlagani esimda. Ehtimol, faqat shu satr ketidan quvgan bo'lishim ham mumkin. Biroq o'zimning samimiy va toza o'ylarimni qog'ozga tushirganman.

O'shanda, taniqli adabiyotshunos domlamiz men tayyorlagan tahlilni eshitgach: «Xo'sh, buni qayerdan ko'chirdingiz?» – degan savolni bergan edi. Sochimning uchlarigacha muzlaganman.

Bu menga, tafakkurimga sanchilgan ilk dahshatli o'q edi.

U suvlar oqib ketdi. Yarasi esa qoldi. Universitetni tamomladim. Moskvada Oliy adabiyot kursida o'qidim. Shoir Rauf Parfining arxiv qo'lyozmalari bo'yicha tadqiqot ishimni himoya qildim.

Biroq bugun ham ana shu o'lchamda olamga, olimga, ilmga boqayotganlar yo'q emas ekan. Eng sevimli shoirimning bitta she'riga qisqa tahlil yozsam, «Sun'iy intellekt tahlilimi?» – deb so'rabdi bittasi. Hech qursa, profilimdagi maqolalarni kuzatganda, balki bu ahmoqona savolini bermasdi, ehtimol. Nahotki odamlar inson hissiyotlari bilan yozilgan maqolani ajrata olmaydilar?!

Ha, ajrata olmaydi, deging keladi. Nega?

Chunki bugun sun'iy intellekt jamiyat oldiga oqni qoradan yoki qorani oqdan ajratish masalasini emas, balki ranggi bir xil, ammo ichi har xil bo'lgan narsalarni bir-

biridan ajratishni taqozo etyapti. Ko'rinib turgan oqni qoradan ajratishga qiynalayotganlar, bir xil rang ichidagi oq-qorani yoki yaxshi-yomonni qayerdanam ajratsin. Shuning uchun ham yuqoridagi misol bugun sun'iy intellekt aynan tafakkur kishilarini o'ylatib, shubhalantirib, cho'chitib, muzlatib, ranjitib qo'yganiga dalildir.

Tafakkursiz deyolmaymiz-u ammo fikr-o'yi faqat o'z manfaatini o'ylovchi, shaxsiy manfaatini har narsadan ustun qo'yuvchi kishilarni esa sun'iy intellekt o'ynatib, yayratib, erkalatib, ishini yengillatib qo'yyapti, desak, bu ham mubolag'a bo'lmaydi. Ochig'i, bajaradigan ishi, yumushi bevosita kompyuter bilan bog'liq kishilarning ishi ancha yengillashgani bor gap. Ayniq-



sa, ilmiy ish qiladiganlarga kun tug'di, desak, sira mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, ular «Igna bilan quduq qazishdek» og'ir yumushdan qutuldi. Ilmiy ish uchun qidirilgan manba soniyalarda muhayyo bo'lyapti. Shu bois ilmiy ishlar salmog'i keskin oshgani ham mas'ullar tomonidan qayd etilyapti.

Ammo... Mana shu ammo ortidagi savollar tafakkur kishisini o'ylantiradi, shubhalantiradi, yuqorida qayd etilganidek yuraklarni muzlatadi.

Meni esa bir emas, ikkita narsa cho'chityapti.

Bundan o'ttiz yillar oldin, adashmasam, nemis faylasufining «Shunday vaqtlar keladiki, odamlarni davlatlar podsholari emas, balki rivojlangan texnika boshqaradi. Hozirgi bo'layotgan kurashlar odamlar ongini zabt etishga qaratilgan harakatdir» degan fikrini o'qigan edim.

Ajablanganimni yashirmayman. O'zimcha bo'lmagan gap, hammaning ongini egallash uchun ularning har birini o'qitishga yoki eshitishga majbur qilib

bo'larmikan, degan o'yda edim. Ammo bugun yoshlar tugul, o'rta yosh, hatto keksalargacha o'z inon-ixtiyori bilan quloqchin taqib olib, uyida bola-chaqasi bilan ham gaplashmay, muloqot qilmay qo'yayotganini ko'rib, uning ancha uzoqni ko'ra oladigan faylasuf ekaniga tan beryapman.

Demak, hademay shu quloqchin orqali odam miyasiga qandaydir ta'sir o'tkaziladigan bo'lsa, ajab emas, miya zombiga aylanib, faqat tarqatuvchi-boshqaruvchi yuborgan ma'lumotni qabul qilib, unga ergashib ketishi hech gap emas. Ergashdimi, bas. Jilovdor uni o'zi xohlagan tomonga tortish, boshqarish kuchiga ega bo'ladi. Bu xavfli kuch ongli – tafakkurli yoki ong-siz – tafakkursiz kishilar miyasini zabt etar ham deylik, ammo yana

bir jiddiy xatar bor. U bundanda xavfli.

Aytaylik, bora-bora hamma ishni, vazifalarni inson o'rniga robotlar bajaradigan bo'lsa, unda odamlar nima ish qiladi?

Bu haqda Xitoy bundan 50 yillar oldin bir o'ylab ko'rgan ekan.

Amerikalik iqtisodchi, Chikago iqtisodiyot maktabi asoschisi, 1976-yilgi Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati Milton Fridman Xitoyga tashrif buyurganda, kurak bilan yo'l kurayotgan ishchilarni ko'rib qoladi.

Hayratda qolgan iqtisodchi so'raydi: – Nima uchun texnikadan foydalanmayapsizlar? Ekskavatorlar bilan bu ish juda tez tugatiladi-ku?

Unga shunday javob berishadi: – Chunki bu yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan dastur.

Shunda Fridman shunday deydi: – Iye... Agar maqsad ish o'zni yaratish bo'lsa, unda ularga kurak emas, qoshiq beringlar.

Xo'sh, Siz bunga nima deysiz?

Shuhrat RO'ZIYEV,
jurnalst.

Til – bilim

TUZZSIZ ODAM

«Tuzsiz odam», «gapining tuzi yo'q» kabi iboralarni eshitganda – odam yoki gap ham «tuzsiz» bo'ladimi? – degan savol xayolingizdan kechgan bo'lishi mumkin. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da shunday izoh keltiriladi: «Tuzsiz – 1. Tuzi yo'q yoki past. Tuzsiz ovqat; 2. (ko'chma) Ma'nosi, mazmuni yo'q; bema'ni, tuturiqsiz. Maqol: o'zi yuzsizning so'zi tuzsiz. «Qo'ying tuzsiz gaplaringizni, sizga yarashmaydi». M.O'rinxo'jayev. «Unutilmas kunlar». Ya'ni, izohli lug'atda bu so'z ovqatga solinadigan osh tuziga bog'lab tushuntiriladi.

Lekin bu ibora bugun yo kecha paydo bo'lgan so'z emas, hatto u eng qadimgi turkiy obidalarda ham uchraydi. Xususan, VIII asr yodgorligi Kultegin toshbitigida shunday jumla bor: «Bag'lari, buduni to'zsiz o'cho'n, tabg'ach budun tabligin ko'rliq o'cho'n...», – ma'nosi: «beglari, xalqi tuzsiz (bo'lgani) uchun, tabg'ach elining yolg'onlariga uchgani uchun...»

Xo'sh, nega yodgorlikda turk beglari va buduniga nisbatan «tuzsiz» sifati ishlatilyapti? Bu yerda ham osh tuzi ko'zda tutilganmi? To'g'ri, tuz ma'dani azaldan turkiyda – tuz, lekin unga shakldosh, ammo ma'nosi farqli bo'lgan boshqa «tuz» o'zakli so'zlar ham borki, Mahmud Koshg'ariy bobomiz «Devonu lug'otit-turk»da shunday so'zlardan beshtasini keltiradi: 1. (تۇت) To'z – qayish yoki kamarga taqiladigan va bog'lanadigan halqa; 2. (تۇت) To'z: ʼl to'z nʼtāk? – mamlakat, el qanday? (bu yerda «mamlakat», «yurt» ma'nosida); 3. (تۇت) to'z – asl, tag, asos. Misol: āniḥ to'bi, to'zi kim? – uning tagi, zoti, asli kim? Kimga borib taqaladi? 4. (تۇت) To'z: to'z j̄r – to'g'ri, tekis yer va nihoyat 5. (تۇت) to'z – tuz.

Devonda alohida ma'nolari ko'rsatilgan bu so'zlarning aksariyati, aslida, kelib chiqishi jihatidan «tekis», «to'g'ri», «tartibli» kabi ma'nolarga ega bir o'zakka borib taqaladi. Shuningdek, bu o'zakdan «tuzmoq», «tuzatmoq», «tuzuk», «tuzum» kabi so'zlar ham yasalgan.

Shunday qilib, Kultegin toshbitigida: «beglari va xalqi tuzsiz bo'lgani uchun» deyilganda «tuzsiz» sifati – «osh tuzi» emas, balki boshqa ma'nodagi «to'z» o'zagidan yasalgan bo'lib, jumlada: «beglari va xalqi to'g'ri, tartibli, asosli, xoqoniga sodiq bo'lmagan uchun, aksincha tabg'ach (xitoy) xalqining yoqimli narsalariga aldangani uchun» degan fikr aytilyapti.

Hozir ham «tuzsiz odam», «gapining tuzi yo'q» deganda, «tartibsiz» asossiz, tuturiqsiz odam», «gapining asosi, tartibi, tuturigi yo'q, to'g'ri emas» kabi ma'nolar tushuniladi. Ya'ni, uning osh tuziga aloqasi yo'q.

Abduvohid HAYIT



Tarixdan tariqcha

TO'P,
TO'PANG,
TO'PPONCHA

Biz ko'pincha hozirgi kunda mavjud bo'lgan aksar buyumlarning avval kichikrog'i, keyin esa ular takomillashtirilib, katta hajmdagilari yaratilgan, degan yanglish tasavvurda bo'lamiz. Bunga kimlardir oldin bir yoki ikki kishilik samolyotlar, so'ngra o'nlab va yuzlab odamlarni o'z bag'riga jo qila oladigan uchoqlar yaratilganini misol qilib keltirishadi.

Aslida-chi? Aslida insoniyat bugungi kunda ham foydalanayotgan aksariyat anjom-u asbob-uskunalarining aynan kattarog'i oldin yaratilgan. Keyin esa ular mo'jaz shakldagilari kashf etilgan. Birgina ibtidoiy to'pdan eng ixcham to'pponchagacha bo'lgan qurollar tarixiga nazar tashlasak, hammasi oydinlashadi.

BOBO TO'P

O'qotar qurollar sulolasini boshlab bergan eng birinchi to'plar bundan ming yillar oldin Xitoyda paydo bo'lgan. Xitoyliklar bambuk naychalariga porox hamda tosh va metall parchalarini solib, raqibga qarata o't ochishgan.

Bu qurol «olovli nayza» deb atalgan.

Bambuk bosimga chidamagani sababli, oradan ikki yuz yilcha o'tib, bronza va cho'yandan naychalar yasay boshlashgan. Hozirgi kungacha saqlanib qolgan eng qadimgi metall to'p 1288-yilga

oid bo'lib, u Xitoyning Manchjuriya hududida topilgan. Uning uzunligi atigi 35 sm, vazni 6,6 kg atrofida bo'lgan va asosan piyoda askarlarga qarshi ishlatilgan.

Keyinchalik G'arbga yurish qilgan mo'g'ullar orqali porox va to'p siri Arab dunyosiga va Yevropaga o'tdi. Xususan, 1346-yilda Angliya va Fransiya o'rtasida bo'lib o'tgan mashhur Kresi jangida inglizlar birinchi marta to'plardan foydalanishgan.

1453-yilda esa to'p qurol sifatida dunyo tarixini butunlay o'zgartirgan voqea sodir bo'ldi. Turk sultoni Muhammad Fotih muhandis Urbanga juda katta hajmdagi «Bazilika» (Shohona) nomli to'pni yaratishni buyuradi. Bu to'p og'irligi 500 kg kela-

digan tosh o'qlarni otar va shaharning asriy mustahkam devorlarini vayron qilar edi. Bu voqea bilan o'rta asrlar qasrlari davri tugadi, ya'ni mahv etish mushkul bo'lgan Konstantinopol (Istanbul) devorlari quladi va shahar qamali uni egallash bilan yakunlandi.



TO'FANG OTA

To'fang (yoki to'pang) – forsha «tufang» so'zidan olingan bo'lib, aynan «miltiq» yoki «olovli qurol» ma'nosini anglatadi. Mumtoz o'zbek adabiyoti va tarixiy manbalarda, masalan, «Boburnoma» yoki xalq dostonlarida «miltiq» so'zi o'rniga ko'pincha «to'fang» yoki «tufak» ishlatilgan. Bunday miltiqdan otadigan askarlarni esa «to'fangchi» deb atashgan.

Milining old tomonidan porox va qo'rg'oshin o'q solinadigan hamda pilik yoki chaqmoqtosh yordamida otiladigan eskicha miltiqlar XV–XIX asrlarda Markaziy Osiyoda, jumladan, Buxoro hamda Xiva xonliklarida piyoda va chavandoz askarlar ishlatgan eng asosiy o'qotar qurol bo'lgan.

Hozirgi zamonaviy miltiqlar (soyli miltiq va avtomat) ning qadimgi ajdodi bo'lgan to'fangning rivojlanish va



ommalashish tarixini ham bir necha bosqichga bo'lish mumkin. Masalan, XIV oxiri va XV asr boshlarida «qo'l to'plari» paydo bo'lgan. Bu bambuk yoki yog'och qo'ndoqqa o'rnatilgan kichik metall naycha bo'lib, bir kishi uni ushlab tursa, ikkinchisi pilikni teshikchaga tegizib o't qo'ygan. XV asr oxiriga kelib haqiqiy to'fanglar paydo bo'ldi. Tepki va pilik mexanizmi ixtiro qilinishi natijasida mergan bir o'zi qurolni nishonga olib ota olardi.


XVI asr boshlarida to'fang juda katta ahamiyatga ega bo'la boshladi. Xususan, Bobur 1526-yildagi Panipat jangida to'fang va to'plardan ustalik bilan foydalanib, son jihatdan ancha ko'p bo'lgan hind qo'shinini mag'lub etgan.

XVI–XIX asrlarda Buxoro va Xiva xonliklarida «to'fangchilar» degan maxsus harbiy bo'linmalar tuzilgan. Bu davrda to'fang asosiy o'qotar qurol hisoblangan. To'fanglar XIX asrning o'rtalarigacha – chaqmoqtoshli va kapsulali miltiqlar, so'ng patronli qurollar ommalashgunga qadar keng ishlatilgan.

KENJATOY TO'PPONCHA

O'qotar qurollar sulolasining uchinchi avlod vakili bo'lgan birinchi to'pponcha birdaniga paydo bo'lmagan, balki bir necha bosqichni bosib o'tgan. Xususan, XIII–XIV asrlarda Xitoyda yaratilgan va bugungi kungacha saqlanib qolgan metall milli qo'l to'pi to'pponchani eng ilk ajdodi hisoblanadi.

XIV asrning ikkinchi yarmiga kelib, Yevropa va Yaqin Sharqda kichik, qo'lda ushlab otiladigan «qo'l to'plari» keng tarqala boshladi. Chaqmoqli/g'ildirakli mexanizmga ega va bir qo'lda ushlab otish mumkin bo'lgan ilk klassik to'pponchalar



esa XVI asrning boshlarida Italiyaning Pistoya shahrida yaratilgan. «To'pponcha» (pistolet) so'zi ham aynan o'sha Pistoya (Pistoia) shahri nomidan kelib chiqqan.

1836-yilda Semuel Kolt birinchi ommaviy avtomatik aylanuvchi barabanli revolvorni patentladi va ishlab chiqarishni boshladi. 1890-yillarga kelib esa eng birinchi yarim avtomatik (o'zidan-o'zi qayta zaryadlanuvchi) zamonaviy to'pponchalar paydo bo'ldi.

Bir so'z bilan aytganda, o'nlab nomlar va shakllarda ishlab chiqarilgan to'pponchalar ana shunday o'ziga xos tarixga egadir.

Temir QURBON



NURAFSHON NUQTA

yoxud

Vatanga sadoqat fidoyilik beshigida ulg'ayar



**1941-yil... Yo'l harakati xavfsizligi xodimi
Ulug'xo'ja xizmat vaqtida yo'l-transport hodisasi
oqibatida vafot etdi. Uning nikoh to'yiga atigi besh
kun qolgan edi...**

Ikkinchi jahon urushining og'ir qiyinchiliklari, yorug' olamni erta tark etgan o'g'lining dog'i, uning ushalmagan orzulari Zahro ayani erta qaritdi. Sho'rlik ona sinovli kunlarda dardini ichiga yutdi. Biroq kechalari farzandini sog'inib, yuragi o'rtanib, achchiq-achchiq ko'z yosh to'kib olardi. Bunga ko'pincha kecha-yu kunduz Zahro ayaning ketidan qolmaydigan jajji nabirasi Jamoljon guvoh bo'lar, bolalaracha beg'uborlik bilan buvisiga: "Buvijon, yana amakimni sog'inib yig'layapsizmi? Yig'lamang, hali ko'rasiz, katta bo'lsam, amakimning ishlarini o'zim bajaraman", deya tasalli berardi. Jamoljonning pokiza qalbidan chiqqan o'sha yupanch so'zlari kun kelib, uning hayoti va qismatiga aylandi.

– Egnimga xizmat libosini kiygan kunim buvim ko'ziga yosh olib: "Bolajonim, xizmatda ildam bo'lg'in, yuzlaring yorug' bo'lsin!", deya oq fotiha berib ishga kuzatganlari kechagidek ko'z oldimda turibdi, – deydi iste'fodagi polkovnik Jamol Suliyeu.

Toshkent shahar Sobir Rahimov (hozirgi Olmazor) tumani IIBda uchastka noziri sifatida faoliyatini boshlagan qahramonimizning bosib o'tgan xizmat yo'liga nazar solarkanmiz, "Daraxt bir joyda ko'karadi" maqoli beixtiyor tilimiz-

da aylanadi. Chunki u 1976-yilda ilk xizmatini starshina lavozimida boshlab, qariyb o'ttiz yil davomida shu tuman IIBning sohaviy xizmatlarida rahbarlik lavozimlarigacha bo'lgan mas'uliyatli yo'lni o'ziga xos qat'iyat va ishonch bilan bosib o'tdi. Polkovnik unvoniga loyiq ko'rilib, yorug' yuz bilan pensiyaga kuzatildi. Ayni paytda esa Olmazor tumani bo'yicha IIOFMB boshlig'ining maslahatchisi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

– Har bir inson kamolotida nafaqat o'zi tarbiya topgan oila, balki unga yo'l-yo'riq ko'rsatgan ustozning ham alohida o'rni bo'ladi, – deydi Jamol Suliyeu. – Men ham birinchi ustozim general-mayor Baxtiyor Siddiqovning Vatanga, xalqqa xizmat qilish buyuk burch ekanligi, kasbga sadoqat va vijdon amriga bo'ysunish haqidagi o'gitlarini qalbimga joyladim. Har qanday sharoitda ichki ishlar organlari xodimi mulohaza bilan ish ko'rishi, fuqarolar bilan muloqot qilganda zehn bilan tinglab, ularning dardini tushunishi va yordam qo'lini cho'zishini o'rgandim. O'z navbatida, ulardan o'rganganlarimni xizmat jarayonida o'z shogirdlarimga o'rgatishga harakat qildim.

– Ustozim Jamol Suliyeu bilan ilk xizmat faoliyatimni boshlagan

kezlardan to bugunga qadar yonma-yon ishlab kelaman, – deydi Olmazor tumani bo'yicha IIOFMB Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi mayor Omon Satimov. – Men har bir xodimga, u qaysi yo'nalishda xizmat qilmasin, Jamol akadek jonkuyar va bag'rikeng ustoz uchrashini tilayman. Hozirda ham qator ma'rifiy tadbirlarda birga ishtirok etamiz.

Yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida samarali xizmat olib borish Jamol Suliyeu uchun har doim ham birdek oson kechmagan. Ayniqsa, unga havas qilib xizmatga bel bog'lagan ukasi – Toshkent shahar IIBB YHXB inspektori, serjant Kamol Suliyeuving xizmat chog'ida vafot etishi, kenja ukasi – "Jasorat" medali sohibi, iste'fodagi serjant Hakimjon Suliyeuving 2004-yil 29-mart kuni Chorsu bozoridagi "Bolalar dunyosi" do'koni yonida xizmat olib borayotgan vaqtida nomal'um ayol o'zini portlatib yuborishi oqibatida bir qo'l va oyog'idan ayrilib, nogiron bo'lib qolishi yuragiga qattiq og'riq soldi. Aytgancha, yana bir ukasi – iste'fodagi serjant Akmal Suliyeu ham Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmatida unga esh bo'lib odimlagan.

– Kindik qonim to'kilgan shu yurtga, ona xalqimga xizmat qilishga bor vujudim bilan ahd qilganman, – deydi lavhamiz qahramoni. – Bu yo'lda menga havasmand bo'lgan jigarlarimning umri, hayoti bilan bog'liq sinovli kunlarni ham

ko'rdim. Ammo ortga chekinmadim, balki yanada iroda bilan bu sharaflı xizmatni davom ettirdim. Bugun bosib o'tgan xizmat yo'llarimga nazar solsam, qalban xotirjamlik tuyib, o'z-o'zimdan qoniqaman. Shu elning farovon hayoti uchun jonidan kechishgacha bo'lgan sinovlardan o'tgan ukalarimning fidoyiligini esa o'zimdan ham yuqori qo'yaman. Ayniqsa, ukam Kamol oramizda yo'q bo'lsada, uning o'g'li Jasurxo'ja otasiga munosib izdosh bo'lib, ayni paytda tizimda xizmat olib borayotganidan ko'nglim taskin topadi.

Har bir so'ziga samimiyat jo bo'lgan lavhamiz qahramoni havas qilsa arzigulik hayot va xizmat yo'llarida hamisha oilasiga, turmush o'rtog'iga suyangan. Bu qo'rg'onning mustahkamligi uchun turmush o'rtog'i – Kimyo fanlari nomzodi Sanobar opa Kamilova bilan birga qadam tashlagan.

– Turmush o'rtog'im bilan oliy o'quv yurtida kursdosh bo'lganmiz, – deydi Sanobar opa. – O'tgan yillar mobaynida ikkimiz oilaviy hayotda ham, xizmatda ham, ilmiy faoliyatda ham sabr-iroda bilan hammaslak bo'ldik. Turmush o'rtog'imning ishi alohida mas'uliyatni talab qilishini anglagan holda, ro'zg'orning butligi, farzandlar tarbiyasini o'z zim-mamga olganman. Bugun qizimiz Dilbarxon soliq, o'g'limiz Azizjon tadbirkorlik, kelinimiz Azizaxon tibbiyot yo'nalishida mehnat qilishyapti. Nabiralarimiz Ruxsaxon, Robiyaxon, Madinabonu, Diyoraxon o'z sohasining bilimdoni bo'lib ulgurishgan bo'lsa, Azimxon, Afzalbeklar ham tanlagan yo'nalishlarida tahsil olishmoqda. Ayni paytda xonadonimizning eng kichik shirintoylari – evaralarimiz Safiyaxon, Anisaxon, Muhammadaminlar qurshovida baxtli hayot kechirmoqdami.


Iste'fodagi polkovnik Jamol Suliyeu qutlug' 75 yoshni qarshilash arafasida. Uning Vatanga sadoqat, kasbga fidoyilik va oila muqaddasligini o'zida mujassam etgan mazmunli hayot va xizmat yo'li erishilgan yutuqlar bilan emas, balki og'ir sinovlarda ham ezigulikka sodiq qolish, farzandlar va shogirdlarga munosib o'rnak ko'rsata olgani bilan nurafshon nuqtaga aylangan.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.
Ikrom HASANOV olgan surat.**



Саломатлик

САРАТОН: ХАВФ ОМИЛЛАРИ ВА ҲИМОЯ ЧОРАЛАРИ



Бугунги кунда саратон касаллиги дунё аҳолиси саломатлигига жиддий таъсир кўрсатаётган касалликлардан бири ҳисобланади. Ушбу касалликка қарши самарали курашишда унинг келиб чиқиш сабабларини ўрганиш, хавф омилларини камайтириш ва эрта ташхис қўйиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Тошкент шаҳар ИИББ Тиббиёт бўлими поликлиникаси шифокор-онкологи Зилола Нурмуҳамедова бу борада зарур маълумотлар билан ўртоқлашиб, керакли тавсиялар бериб ўтди.

САРАТОН КАСАЛЛИГИ ҚАНДАЙ ЮЗАГА КЕЛАДИ?

Бу хасталик иммунитет фаоллиги сусайганда, ҳужайраларнинг бўлиниш жараёни бузилиши оқибатида келиб чиқади ва бунга кўпинча наслдан-наслга ўтувчи мойиллик, қуёшнинг ультрабинафша нурлари, тамаки ва спиртли ичимликлар, айрим вирус, бактерия ва инфекциялар, носоғлом турмуш тарзи ва танада йиллар давомида йиғилган хавфлар сабаб бўлади.

БУ БЕЛГИЛАРГА АҲАМИЯТСИЗ БЎЛМАНГ

Афсуски, онкологик касалликлар дастлабки

босқичларда яққол белгиларсиз кечади ва кўпинча касаллик кучайган пайтдагина ўзини намоён қилади. Бу хасталикка чалинган беморлар кўпинча доимий ҳолсизлик ва чарчоқ, тинимсиз тана ҳарорати кўтарилиши, ўта озиб кетиш ва иштаҳа йўқолиши, тери ҳолати ва танадаги хол рангининг ўзгариши, ҳеч ўтиб кетмайдиган йўтал, организмда сув тўпланиши, ичаклар фаолияти ва ҳазм бузилиши, қон ажралиши, лимфа тугунларининг катталашиши, организмда тез ўзгарувчан ҳолатлар, тананинг турли қисмларида оғриқларга шикоят қилишади.

КАСАЛЛИКНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ

Асосий хавфларни бар-тараф этиш орқали саратоннинг олдини олиш мумкин. Бунинг учун қуйидагиларга амал қилиш лозим:

* Спиртли ва тамаки маҳсулотлар истеъмолидан воз кечиш. Чунки сигарета тутунда инсонни заҳарлайдиган жуда кўп хавфли моддалар бор, улар ўпка ва бошқа тана аъзоларида саратонни келтириб чиқаради. Спиртли ичимликларни меъёрдан ортиқ истеъ-мол қилиш эса ичак, жигар ва оғиз бўшлиғида хавфли ўсмалар пайдо бўлишига олиб келади.

* Офтоб нури остида кўп

қолмаслик. Қуёшнинг ўта кучли нурлари тери саратонини қўзғатади. Шунинг учун куннинг энг қизиган пайтларида очиқ қуёшда юрмаслик ва ҳимояловчи кремлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

* Тана вазнини меъёрида сақлаш. Ортиқча вазн организмда яллиғланишларни кучайтириб, гормонлар фаолиятини ўзгартиради ва саратон ривожланишига шароит яратади.

* Фаол ҳаракатда бўлиш. Ҳар куни мунтазам равишда жисмоний машқлар бажариш моддалар алмашину-вини яхшилайди ва саратон хавфини камайтиради.

* Вируслардан ҳимояла-ниш. Айрим хавфли вируслар ва гепатит инфекциялари-га қарши ўз вақтида эмла-ниш зарур.

* Тўғри овқатланиш. Қай-та ишланган гўшт ва кол-баса маҳсулотлари, тарки-бида таъм ва маза берувчи сунъий қўшимчалар бўлган егуликларни камроқ истеъ-мол қилиш, асосан, қўкат-лар, сабзавот ва мевалар, балиқ маҳсулотлари билан озиқланиш тавсия этилади.

* Қонда холестерин миқ-дорини меъёрда ушлаб ту-риш. Холестерин мувозана-тини сақлаш организмдаги модда алмашинуви жара-ёнларини барқарорлашти-риб, умумий саломатликни ҳимоя қилишда муҳим аҳа-мият касб этади.

* Қон босимининг кўтари-лишининг олдини олиш. Қон босимини назорат қилиш организмнинг умумий ҳола-тини яхшилайди ва соғлом

ҳаёт тарзини сақлаш орқа-ли касалликлар, жумладан, саратон хавфини камайти-ришга хизмат қилади.

* Қонда қанд миқдори-ни кузатиб туриш. Унинг меъёрда бўлиши модда ал-машинувини назорат қи-лишга ёрдам беради, бу эса организмдаги салбий ўзга-ришларнинг олдини олишда муҳим омил ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, саратон жиддий ва хавфли касаллик бўлса-да, бугунги кунда замонавий тибби-ёт ютуқлари туфайли уни аниқлаш ва даволаш имко-ниятлари тобора кенгайиб бормоқда. Саратон – бухукм эмас. Эрта ташхис қўйиш усуллари ва самарали да-волаш имкониятлари ту-файли кўплаб беморларда касалликни назорат қилиш ва ҳаёт сифатини яхшилаш имкони мавжуд.

Асосийси, ҳар бир инсон ўз соғлиғига беэътибор бўлмай, бунга масъулият билан ёндашиши, зарарли одатлардан воз кечиши, соғлом турмуш тарзига амал қилиши, ҳар йили мунтазам равишда тиббий кўрик ва скрининглардан ўтиб туриши зарур. Касал-лик қанчалик эрта аниқлан-са, уни самарали даволаш ва инсон ҳаёти сифатини сақлаб қолиш имконияти шунчалик юқори бўлади. Саломатликни асраш эса аввало инсоннинг ўзига бўлган масъулиятдан бошланади.

Гулчеҳра АЗИМОВА
ёзиб олди.

Бекажон маслаҳати

ОСОН БИЧИМ, НАФИС КЎРИНИШ

Қулайлик ва нафосатни ўзида мужассам этган ушбу энгил либос кундалик кийиш учун аини муддао. У кенг бичимга эга бўлиб, эркин ҳаракатланиш имконини беради, энгининг ўзига хос шакли эса либосга замонавий кўриниш бағишлайди. Расмдаги аниқ ўлчамлар асосида бичимни тайёрлаб, матога кўчириш орқали ушбу кофтани уй шароитида ҳам осонлик билан тикиш мумкин.



ЛАЗЗАТЛИ КОПТОКЧАЛАР

Картошка ва пишлоқли коптокчалар – оилавий дастурхон учун иштаҳаочар ҳамда осон тайёр бўладиган мазали егулик. Усти қарсилдоқ, орасида пишлоқ эриб турадиган ушбу лаззатли коптокчаларни тайёрлаш жуда оддий: қайнатилган картошкани пюре ҳолига келтириб, тухум, ун ва зираворлар билан қорасиз, ичига пишлоқ бўлакчаларини солиб, коптокчалар ясайсиз ҳамда талқонга белаб, тилларанг тус олгунча қовуриб оласиз. Иссиқ ҳолида махсус соус билан тортиладиган ушбу таом нафақат кўриниши, балки ажойиб мазаси билан ҳам барчага бирдек манзур бўлади!



ТАРКИБИ

- картошка — 700 г
- моцарелла пишлоғи — 150 г
- тухум — 1 шт.
- ун — 3 ош қ.
- талқон — 100 г
- саримсоқ — 2 бўлак
- туз, мурч

ТАЙЁРЛАШ

- 1 Картошкани қайнатиб, пюре ҳолига келтиринг.
- 2 Тухум, ун ва зираворларни қўшинг.
- 3 Ичига пишлоқ бўлакларини солиб, коптокчалар шакллантиринг.
- 4 Талқонга ботириб олинг.
- 5 Тилла рангга киргунча қовуринг.

✓ МАЗАЛИ, ОДДИЙ ВА ТАБИИЙ!



www.youtube.com/@Postda_IV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Boks

XALQARO XOTIRA TURNIRI

Jizzax viloyati ichki ishlar organlarida fidokorona xizmat qilgan marhum faxriylar Toshpo'lat Zokirov, Payzimurod Elmurodov va Ikrom Xolmatovlarning xotirasiga bag'ishlangan sportning boks turi bo'yicha o'smirlar o'rtasida xalqaro xotira turniri bo'lib o'tdi.



Turnirda qo'shni Qozog'iston, Tojikiston davlatlari hamda Qoraqalpog'iston respublikasi va barcha viloyatlardan kelgan 300 nafar yosh bokschi ishtirok etdi. Musobaqa Jizzax shahridagi «Ravalliq» MFY hududidagi 11-maktab sport maydonida bo'lib o'tdi.

– Mustaqillik bayrami munosabati bilan tashkil etilgan ushbu xotira turniri yoshlarimiz qalbida vatanparvarlik g'oyalarini yanada

mustahkamlash, ezgu ishlarga intilish va yuqori natijalarga erishish uchun intilib yashashga undaydi, – deydi iste'fodagi podpolkovnik Otamurod Xolmatov.

Uch kun davom etgan turnir natijalari bo'yicha 15 ta vazn toifasi g'oliblariga viloyat IIB rahbariyatining hamda tashkilotchilarning sovrinlari, esdalik sovg'alari topshirildi.

Bahodir BEGIMQULOV,
iste'fodagi mayor.

Aralash jang san'atlari

KUCHLI OLTILIKDA

Birlashgan Arab Amirliklarining Abu-Dabi shahrida sportning aralash jang san'atlari bo'yicha kichik o'smirlar, o'smirlar va yoshlar (o'g'il bolalar va qizlar) o'rtasida jahon chempionati bo'lib o'tdi.

Unda dunyoning 55 ta mamlakatidan 1500 nafarga yaqin sportchi ishtirok etib, g'oliblik uchun bahs olib bordi.

Musobaqada O'zbekiston terma jamoasi tarkibida 61 nafar sportchi ishtirok etib, jami 15 ta – 3 ta oltin, 4 ta kumush va 8 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi.

Umumjamo'a medallar hisobida O'zbekiston terma jamoasi 6-o'rinni egalladi.

Poytaxtimizning Islom Karimov nomidagi xalqaro aeroportida Jahon chempionatida munosib ishtirok etgan sportchilarimiz Assotsiatsiya rahbariyati hamda sportchilarning yaqinlari tomonidan munosib ravishda kutib olindi.



Voleybol

PAYSHANBADA BELLASHAMIZ

Har hafta payshanba kuni Farg'ona viloyatining shahar va tumanlarida yoshlar o'rtasida voleybol musobaqalari muntazam tashkil etilmoqda.

Ushbu tashabbusdan ko'zlangan asosiy maqsad – yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sportga qiziqishini oshirish hamda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash.

Navbatdagi voleybol bahslari Yozyovon, Toshloq, O'zbekiston, Furqat, So'x, Quva, Qo'shtepa, Marg'ilon, Rishton va Buvayda hududlarida bo'lib o'tdi.

Qizg'in va muvofiqsiz kechgan bellashuvlarda yoshlar o'zlarining mahorati, chaqqonligi va jamoaviy hamjihatligini namoyish etdilar.

Farg'ona viloyatida voleybolga qaratilayotgan e'tibor va muntazam tashkil etilayotgan musobaqalar ushbu sport turining yoshlar orasida yanada ommalashishi va rivojlanishiga xizmat qilmoqda.



Shatranj burchagi

SHAXMATNING VATANI QAYER?

Shaxmatning kelib chiqishi haqida ko'plab afsona va taxminlar bor. Lekin mamlakatdagi arxeologik topilmalar bu o'yinning haqiqiy vatani O'zbekiston bo'lishi mumkinligini inkor etmaydi. Olimlar Afrosiyob va Dalvarzintepadan topilgan shaxmat donalari dunyoning boshqa hududlaridan topilgan donalardan bir necha asr oldinroq yaratilganini isbotlagan.

Ayrim manbalarda kanadalik arxeologlar tomonidan 1991-yilda lordaniyadan topilgan haykalcha — eng qadimiy shaxmat donasi deb taxmin qilinadi.





Ushbu topilma VIII asrga oid bo'lib, qumtoshdan yasalgan. Shuningdek, Samarqanddagi Afrosiyob xarobasidan topilgan, VII asrga mansub fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari eng qadimgisi sifatida e'tirof etiladi. Afrosiyob shaxmat donalari shoh, vazir, arava, fil, ikki qurolli otliq va piyoda jangchidan iborat.

Bundan ham qadimiyroq topilmalar 1972-yilda Dalvarzintepadan aniqlangan. Galina Pugachenkova boshchiligidagi ekspeditsiya tomonidan qazilgan shaxmat donalari eramizning II asriga mansub deb baholangan. Donalardan biri fil shaklida, ikkinchisi esa ot figurasi bo'lib, ular o'sha davrdagi shaxmatning rivojlanganini tasdiqlaydi.

Mazkur topilma hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti noyob obyektlar bo'limida saqlanmoqda. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ekspozitsiyalarida ham yurtimiz hududidan topilgan qadimiy shaxmat donalari haqida ma'lumot olish mumkin.

Oqlar boshlaydi va uch yurishda mot qiladi





ЖУМБОК

Британиялик рассом Тим Ноулз ўсимликлар ёрдамида суратлар яратади. Ноулз бутунлай гуманистик йўл билан табиатни ўзига ишлашга мажбур қилади: у турли дарахт шохлари учларига авторучка маҳкамлаб, уларнинг олдига қоғоз қўйиб қўяди ёки мольберт ўрнатади. Санъат асари якунига етиши учун яна бир шароит талаб қилинади.

Диққат, савол: яна нима керак бўлади?

(Жумбоқнинг жавобини @PostdaUz_botга юборишингиз мумкин.)

Газетамизнинг 36-сонида чоп этилган жумбоқнинг жавоби: уруғлар атайлаб қуритилган, унмайдиган қилинган эди. Подшоҳ ростгўйлиги учун шу йигитни танлаган.



Dunyoda insonning o'z nafsidan nafratlanishidek azobli his bo'lmasa kerak! Yillar davomida o'zini bizga boshqacha ko'rsatib, yolg'on so'zlari bilan chuv tushirib kelgan allaqanday tanishimizning pastkash va tubanligini sezishimiz bilan undan darhol uzoqlashamiz. Sevgi-muhabbatda ham xuddi shunday... Kimgadir ishonch bildirib, mehr ko'rsatamiz, havas qilamiz, lekin bunga arziydigan inson emasligini anglab yetgach, undan birdan so-vib, hatto dushmanga aylanamiz. Lekin o'zimiz shunday bo'lsak-chi? Nima ham qila olardik? Hech nima! Axloq tushunchasi ruhimizga singdirgan «yaxshilik, to'g'rilik, go'zallik» ideali asta-sekin xiralashadi. Bu uch olovli mash'ala so'ngach esa zulmat ichida ekanimizni bilmay ham qolamiz...


Mana, bugun mening ham ruhimdagi ilohiy mash'ala so'ndi. Yaramas, o'zini yo'qotib qo'ygan, shu bilan birga, qayg'uiga botgan, g'amgin, tushkun bir insonga aylan-dim! Insoniylik qadrini yo'qotgan bir sho'rlikman! Bu qorong'ulikqa qulashim o'z irodam bilan bo'lmadi, beixtiyor yuz berdi... Hatto «mening xabarimsiz...» bo'ldi desam ham adashmayman.

O'n besh kun oldin amakimning uyida tunab qolgandim. Bu qan-day sodir bo'ldi? Nima bo'ldiyu, birdan insonlikdan chiqdim? Endi hech qachon qaytishning iloji bo'l-magan bu jannatdan qanday qilib jahannamga quladim? Qanday, nima uchun?..

Amakim o'g'li Nihat urushda halok bo'lganidan keyin meni uning o'rniga qo'ygandi. O'tgan yili esa yangam g'am-alamdan vafot etdi. Endi bu baxtsiz inson saroy kabi uyida xizmatkorlari bilan yashardi. Ora-sira uni ko'rgani boraman. Umrinda tanigan insonlarim ora-sida amakim eng yaxshisi, eng axloqlisi bo'lib, go'zal fazilat-lari bilan ajralib turardi. U otasidan qolgan katta boylikni ukasi kabi aysh-ishratga sovrurmay, umrini davlatga xizmat qilishga baxsh et-gan. She'riyatga, san'atga bo'lgan havasi va qiziqishini biz, bugungi kun avlodlari, hatto tasavvur ham qila olmaymiz. Devonlar uning uchun muqaddas va o'ziga xos ahamiyatga ega. G'azallar, qa-sidalar misralari va qofiyalarida ilohiy bir sir yashirin deb bilardi. Uydagi bog'ning bir burchagida, qora qarag'aylar orasida qur-dirgan kutubxonasi ham amakim uchun juda qadrlidi. Kunining

yarmidan ko'p qismini shu yerda kechirardi. Javonlar changini artar ekan, kitoblar muqovasini ohista silab, so'ngra o'tirib mehr bilan mutolaa qilardi.

O'sha kuni menga eshikni och-gan xizmatkor: «Xo'jayin kutubxo-nadalar, xohlasangiz, o'sha yerga o'ting», – dedi. Barglari to'kilgan daraxtlar ostida hali ham yam-ya-shil turgan egatlarga bir-bir nazar tashlab borardim. Kutubxonaning qo'rg'oshin qoplamali gumbazi bir minbar kabi ko'rinardi. Deraza-larning yashil rangli temir romlari ochiq edi. Eshikka yaqinlashdim. Eski uslubdagi halqasimon dasta ostidagi qulfga sariq kalit tiqilgan



holda turardi. Barmog'im bilan sekin taqillatdim, eshitmadi. Biroz qattiqroq urgandim, meni xizmatkor deb o'yladi:

– Nima gap, Mahmud?

– Mahmud emas, amaki, men-man...

U eshikni ochdi. Moviy va char-chagan ko'zlarini yanada kattaroq ko'rsatadigan qalin halqali tilla ko'zoynagi va oppoq soqoli bilan maqbarasidan jonlanib chiqqan bir avliyoga o'xshardi. Salom berib, qo'lini o'pdim.

– Kelaqol, – dedi, – senga bir javohir ko'rsataman.

Men poyabzalimni yechdim va qizil shippaklardan birini kiydim. Amakimning egnida tuya yungli uy xalati bor edi. Shishali stol atrofiga o'tirdik. Ochiq turgan kitobni men-ga uzatdi va yana:

– Javohir, tengi yo'q javohir, – deya takrorladi.

Bu javohir loyga tushgan bir do'kon daftariga o'xshardi. Yol-g'ondan o'zimni qiziqish bildirgan-dek ko'rsatdim.

– Chindan ham nodirga o'x-shaydi, – dedim.

– Kecha olib kelishdi. Qancha-ga sotib oldim deb o'ylaysan?

– Ikki lira bo'lsa kerak.

Yuzimga tikilib qaradi:

– O'ylab gapiryapsanmi, o'g'-lim? – dedi.

Vaziyatni to'g'rilashga urindim:

– Muqovasi juda eski ekan-da...

Nima, besh liraga oldingizmi?

– Qanaqa besh lira, – deya baqirib yubordi u. – «Dafiu'l-gum'um», Deli Birader asarlarining nayob to'plami. Istanbulda boshqa nusxasi yo'q. Ehtimol butun dunyo-da bunga o'xshashi yo'qdir! Balki yozuvi ham o'z qo'lyozmasidir...

– Qanchaga oldingiz?

– Bir yuz sakson liraga.

lavhalar osig'liq edi. Gumbaz markaziga o'rnatilgan billur qandil oltin tusli zanjirlari bilan kutubxona-ni kamtarona osudaligiga mos kelmaydigan darajada ulug'vor ko'rinardi.

Amakim o'qigan qasidasini tugatgandan so'ng:

– Xabaring bormi, kutubxo-namni sotib olmoqchi bo'lish-yapti, – dedi.

– Kim?

– Tanimaysan. Sharqshunos-lardan.

– Qancha berishyapti?

– Avval o'n ming lira taklif qilishdi. Sotmayman degandim, narxni o'n besh mingga, yigirma mingga ko'tarishdi.

– Yo'g'-e?

– Hatto yigirma besh ming beramiz deyishdi.

– Hech o'ylab o'tirmang, amaki, sotib yuboring, – dedim.

U nigohini o'qiyotgan kito-bidan menga tikdi, ko'zlaridan qattiq ranjigani ko'rinib turardi...

– Kutubxonamni sotaymi? Keyin men nima qilaman?

– ...

Ko'zlarini yana kitobga qada-di. Qovog'ini uydi. So'ng xafa va horg'in ifoda bilan:

– Men qabrga, kutubxonam kim oshdi savdosiga, – deb bo-shini sarak-sarak qildi.

Hech narsa deya olmadim. Qo'limdagi kitobni o'qiyotgan-dek ko'rindim. Qancha vaqt sukut saqladik bilmayman, men-ga juda uzoq tuyuldi. Ko'zlarim sahifa satrlari oralab kezar ekan, xayolimda yigirma besh ming lira aylanardi. Bu kichik mablag' emas, lekin qachondir meniki bo'lishi kerak. Chunki amakimning bizdan boshqa vo-risi yo'q edi.

Qiziq, kutubxonani so'rayot-gan sharqshunoslar kim ekan? Hatto so'ramoqchi bo'lib og'iz juftladim. Lekin jur'atim yetmadi. Ko'zoynak ostida yanada katta, moviy va chaqnoq ko'rinadi-gan o'tkir ko'zlardan qo'rqdim. O'y-xayollarimni darhol anglab olishidan cho'chidim. Shu payt-gacha esimga ham kelmagan bu meros to'satdan butun xayo-limni band qildi. Amakim bilan nimalar haqida gaplashganimni ham bilmayman. Kutubxonadan chiqdik. Uy mehmonxonasiga kirib, ovqatlangani o'tirdik. Men o'zimni go'yo bir roman ichida yurgandek his qilardim.

(Davomi kelgusi sonda.)

Turk tilidan Gulchehra AZIMOVA tarjimasi.

O'qishni tavsiya qilaman

Ichki ishlar organlari xodimlari orasida shunday insonlar ham borki, ular bir vaqtning o'zida bir ko'zi bilan rostni, boshqasi bilan yolg'onni, birida haqiqatni, ikkinchisida nohaqlikni, ba'zan adolatni, ba'zida esa razolatni birga ko'rib ular orasida yashaydi. Ezgulikni ko'rganda quvonib, qabohatga duch kelganida ranjiydi. Mardlar ishidan sevinib, nomardlar qilmishidan kuyunadi.

KO'NGILDA
YIG'ILGAN DARDLAR

Uzoq yillar ichki ishlar organlarining matbuot sohasida xizmat qilgan hamkasbimiz Ulug'bek Mamadaliyev (Ulug' Bek Ma'ruf) iste'dodli ijodkorlardan biri.

Uning yaqinda nashrdan chiqqan «Ichimdagi so'z» she'riy to'plamini o'qisangiz, bu ijodkorning ikki o't orasida yashab, ijod qilib, hayotda ko'rganlaridan ba'zan kuyunib, gohida suyunib yashaganiga guvoh bo'lasiz.

2008-yilda yozilgan «Ichimdagi so'z» she'rida shunday yozadi:

**Bir so'z yotar manim ichimda,
Uyqudagi vulqonga o'xshab.
Jonim titrar taftidan qaqshab,
Zarra imkon yo'qdir kuchimda.**

Oradan 18 yil o'tgach, u yillab ichida saqlagan bu so'zlarni aytishga o'zida kuch topganini sezadi. Va buni «Ey, ichimda yashayotgan so'z» nomli she'rida bo'ldi, shuncha yotganing yetar, degandek:

**Shuncha zamon yotding ichimda,
Pinhon tutdim seni ellardan.
Bor ekan-ku, imkon kuchimda,
Asrab keldim shamol sellardan,**

– deya ularni aytishga jazm qilganini qayd etadi.

Demak, so'zni sutga, fikrni qatiqqa, tafakkurni esa qaymoqqa qiyoslasak, shoir Ulug' Bekning qalbiga ona suti bilan kirgan so'z, yillar davomida qatiqdek uyub, bugun qaymoqqa, ya'ni ajoyib tafakkurga aylanganiga amin bo'lamiz. Bu tafakkurdan bahra olgan o'quvchi uning she'rlarini o'qib, dunyo, inson, do'stlar, mehr-oqibat, muhabbat va muruvvat neligini chuqurroq anglay boshlaydi.



«Dunyo» she'rida u:

**Ayollarga o'xshaydi dunyo,
Sevgan saring qilaverar noz.
Qancha mehr ko'rsatsang unga,
Senga mehri bo'lar shuncha oz,**

– deya ta'rif beradi.

«Kimning kimligi» she'rida esa atrofidagi insonlarning munosabati, ishi va qilmishlariga qarab ozurda bo'ladi.

**Boshinga bir ish tushsa,
Bahoringga qish tushsa,
Tark aylasa omading,
Egilsa alp qomating,
Kimning kimligini shunda bilasan,
Nomard jimligini shunda bilasan,**

– deydi kuyunib.

Kitobdagi «Oqpadar» voqeiy qissani, marhuma onasi nomidan yozgan «Salomatlik» nomli faxriyani, «Kamtarlik» singari hazilomuz she'r va boshqa ijod namunalari o'qigan o'quvchi har bir she'rda chuqur dard yotganini va bu iztirob yurakdan otilib chiqqanini anglaydi.

Kimki ichidagi so'zni topolmayotgan yoki aytolmayotgan bo'lsa, Ulug' Bek Ma'rufning «Ichimdagi so'z» kitobini o'qishni tavsiya etamiz. Chunki bu kitobda insonning hayotda nima uchun yashashi, nimaga intilishi, nimadan quvonib, nimadan ozurda bo'lishi haqidagi qator savollarga munosib javoblar bitilgan.

Shuhrat RO'ZIYEV,
jurnalist.

DUNYO

*Ayollarga o'xshaydi dunyo,
Sevgan saring qilaverar noz.
Qancha mehr ko'rsatsang unga,
Senga mehri bo'lar shuncha oz.*

*Nomard otda, mardlar yayovdir,
Nodonlarning hukmida dono.
O'z koridan ma'ni topolmay,
Telbasifat bo'lgan bu dunyo.*

*Xayr izladim har bitta ishdan,
Har oqibat nadomat ko'rdim.
Nadomatdan xoli bo'lgani,
Faqat sabr-u ibodat ko'rdim.*

*Shunday ekan, izlamoq nechun,
Kim ne topdi, men ne toparman?
Qo'lim siltab, bunday sargardon,
Sarsonlikka eshik yoparman.*

*Mayli boray, menga ijozat,
Qadamimga sohib gul, ziyo.
Og'ushiga chorlaydi uzlat,
Endi meni izlasin dunyo.*

UMR

*Umr yo'ldir chang-u tor,
Chohlaridan qochinglar.
Har qadamda bor devor,
Ko'zni katta ochinglar.*

*Bu yo'llarda uchragay,
Goh bo'ri, goh tulkilar.
Birov tepmoq bo'ladi,
Yana birov turtkilar.*

*Nomard ko'pdir bu yo'lda,
Mard anqoga barobar.
Biroq kim ne izlasa,
Topar, albat, birodar.*

*Yaxshi qiling niyatni,
Atri ro'yob sochilgay.
Durust cherting, har yopiq
Darvoza ham ochilgay.*

Ulug' Bek MA'RUF

Musiqiy tanaffus

*Ey, yaxshilar, dunyoda
Ortda qolgan iz yaxshi.
Bulbuli yo'q bahordan
Qumrisi bor kuz yaxshi...*

G'iyos BOYTOYEV
O'zbekiston xalq artisti

Muhammad YUSUF
O'zbekiston xalq shoiri

Donolar so'zlaydi, biz yodga solamiz

**Tajriba
xatolarga
berilgan ismdir**

Xato Tajriba O'sish

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

**Bosh muharrir
o'rinbosarlari**

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrirlar

Erkin SATTOROV
Sarvar SOBIROV

Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Shuhrat RO'ZIYEV
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari

bo'yicha:

71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 2650.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
50674 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.

Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.